


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“TARIXIY REKONSTRUKSIYA MASALALARI”
MODULI BO‘YICHA
O‘QUV–USLUBIY MAJMU‘A**

Toshkent – 2022

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: R. Suleymanov, O‘zMU Arxeologiya kafedrasining professori
SH. Shonazarov, O‘zMU Arxeologiya kafedrasining katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar: A. S. Sagdullayev, O‘zMU Arxeologiya kafedrasining akademiki
F. Ochildiyev, O‘zMU Arxeologiya kafedrasining dotsenti

O‘quv -uslubiy majmua O‘zbekiston milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2021 yil dekabrda № -sonli baènnomasi)

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: “Tarixiy rekonstruksiya masalasi” predmeti, mazmun – mohiyati to‘g‘risidagi magistr'larga umumiy tushuncha berish, fanga

oid ma'lumotlar, yangi nazariyalarni o'rganishda ilmiy jihatdan yondashish, tadqiqot ko'lamining o'sishi, va bilimlar doirasining kengayib borishini aniqlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish usullarini o'rganishdan iborat.

Modulning vazifalari: tarixiy manba sifatida, ularni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish ahamiyati, ijtimoiy – iqtisodiy tizimning rekonstruksiya etnomadaniy jarayonlarni tiklash, arxeologiyada tarixiy rekonstruksiya doir ilmiy qarashlar va yondoshuvlar haqida chuqur bilim berishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- arxeologik materiallarni tarixiy manba sifatidagi o'rnini;
- ularni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilishni;
- ishlab chiqarish xo'jaliklarni (dexqonchilik, chorvachilik va boshqalar) o'rganish usullarini;
- zamonaviy ilmiy nazariyalarni;
- arxeologiya ma'lumotlar va paleodemografiya masalasini;
- iqtisod tarixini umumlashtirish, tiklash muammolarini;
- dafn marosimlari, odatlari va qabrlarda topilgan buyumlarning tarixiy rekonstruksiya jarayonidagi ahamiyatini;
- arxeologiyada tarixiy rekonstruksiyaning ahamiyatini *bilishi* kerak.
- qadimiy jamiyatlar xo'jaligini o'rganishda tizimli yondoshuv;
- Markaziy Osiyoda davlatchilikning kelib chiqishi xususiyatlarini arxeologik ma'lumotlar asosida yoritish;
- ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tarixini arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiya yo'nalishlarini bilishi va mavjud ilmiy ma'lumotlardan foydalana olish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.
- hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishining texnologik shart – sharoitlarini o'rganish;
- hayot sharoiti, inson turmush tarzi va madaniyatini tiklashda arxeologik ma'lumotlardan foydalanish;
- ayriboshlash va savdo–sotiqning tarixiy rekonstruksiyasini o'rganish;
- paleodemografiya va iqtisod, ijtimoiy taraqqiyot tarixining arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiya qilishni bilish;
- ilk shaharlar va davlatlarning arxeologik belgilarini anglash kabi *malakalariga* ega bo'lishi lozim.
- fan doirasidagi o'quv ilmiy ahborotni, muayyan ma'lumotlarni xronologik jihatdan ajratib qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish tizimlaridan foydalanib ta'lim jarayonini boshqarish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Modulni o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, o'tkaziladigan amaliy va ko'chma mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspres-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Tarixiy rekonstruksiya kursi o'quv rejadagi Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi, Jaxon arxeologiyasi, O'rta Osiyo arxeologiyasining dolzarb muammolari kabi mutaxassislik fanlarining sohalari bilan o'zviy bog'langan holda pedagoglarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonini tashkil etishda yangicha yondashuv asoslarini va bu boradagi ilg'or tajribani o'rganadilar, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir yangi bilimlarga ega bo'lishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg'ul	Ko'chma mashg'ul
1.	Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi, arxeologik materiallar – tarixiy manba sifatida.	2	2		
2.	Qadimgi jamiyatlar xo'jaligini o'rganish muammolari	4	2	2	
3	Ilk ziroatchilar jamiyatida jamoatchilik hunarmandchilikning shakllanishi	2		2	
4	Ijtimoiy taraqqiyot tarixini arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiya	4	2	2	
5	Uy - joylarning evolyusiyasi va ularning ijtimoiy taraqqiyot bilan aloqadorligi	2		2	
6	Qadimgi e'tiqodlar va diniy qarashlarning o'rganish muammolari.	2		2	
7	Ilk shaharlar va davlatlarning arxeologik belgilari	4	2	2	
	Jami:	18	8	10	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi, arxeologik materiallar – tarixiy manba sifatida (2 soat).

- 1.1. Arxeologik materiallar – tarixiy manba sifatida.
- 1.2. Arxeologik ma'lumotlarni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilishning ilmiy ahamiyati.

2-mavzu. Qadimgi jamiyatlar xo'jaligini o'rganish muammolari (2 soat).

- 1.1. Qadimiy jamiyatlar ishlab chiqaruvchi xo'jaligining o'rganishga oid zamonaviy ilmiy nazariyalar.
- 1.2. Arxeologik ma'lumotlar asosida paleodemografiya masalasini o'rganish.

3-mavzu. Ijtimoiy taraqqiyot tarixini arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiya (2 soat).

1.1. Iqtisod tarixini o'rganishda arxeologik yondoshuv.

1.2. Ma'naviy va madaniy tarixni o'rganishning arxeologik manbalari.

4-mavzu. Ilk shaharlar va davlatlarning arxeologik belgilari (2 soat).

1.1. Ilk shaharlar va davlatlar tarixini tiklashning moddiy asoslari.

1.2. Markaziy Osiyo davlatchiligining o'rganishdagi zamonaviy muammolar va yondoshuvlar.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot. Qadimgi jamiyatlar xo'jaligini o'rganish muammolari, qadimiy jamiyatlar xo'jaligini o'rganishdagi tizimli yondoshuv, o'zlashtiruvchi xo'jaliklar (termachilik, ovchilik, baliqchilik) tarixiga oid arxeologik topilmalarning mazmun mohiyati, ishlab chiqarish xo'jaliklarni (dexqonchilik, chorvachilik) o'rganish usullari, mavzuga oid zamonaviy ilmiy nazariyalar (2soat).

2-amaliy mashg'ulot. Ilk ziroatchilar jamiyatida jamoatchilik hunarmandchilikning shakllanishi hunar kasbini dehqonchilikdan ajralib chiqishining texnologik shart – sharoitlari, ixtisoslashgan hunarmandchilikning rivojlanishi, arxeologiya ma'lumotlari va paleodemografiya masalasi, ilk ayriboshlashning shakllari. Qadimgi aloqa yo'llarining rivojlanishi. Arxeologiya ma'lumotlari va paleodemografiya masalasi(2soat).

3-amaliy mashg'ulot. Ijtimoiy taraqqiyot tarixini arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiya, iqtisod tarixini umumlashtirish, tiklash muammolari, asosiy yondoshuvlar (2soat).

4-amaliy mashg'ulot. Uy - joylarning evolyusiyasi va ularning ijtimoiy taraqqiyot bilan aloqadorligi (2soat)..

5-amaliy mashg'ulot. Dafn marosimlari, odatlari va qabrlarda topilgan buyumlarning tarixiy rekonstruksiya jarayonidagi ahamiyati. Qadimgi e'tiqodlar va diniy qarashlarning o'rganish muammolari. Qadimgi tosh davrida hayot (2soat).

6-amaliy mashg'ulot. Ilk shaharlar va davlatlarning arxeologik belgilari, ilk shaharlar va davlatlar tarixiga doir arxeologiyada ahborot. Markaziy Osiyoda davlatchilikning kelib chiqishi xususiyatlarini arxeologik ma'lumotlari asosida yoritilishi. Zamonaviy muammolar va yondoshuvlar (2soat).

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

“**Keys-stadi**” metodi «Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea- hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima- natija (What).

Keys. Afrika qit’asida dastlabki ibtidoiy odamlar paydo bo‘ldi. Ular asta-sekinlik bilan yer yuzining boshqa xududalriga tarqala boshladi. Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Dastlabki ibtidoiy odamlarning Afrika qat’asidan migratsiya qilishi yer yuzida tarqalashining sabablari nimalardan iborat.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ➤ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ➤ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ➤ axborotni umumlashtirish; ➤ axborot tahlili; ➤ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ➤ individual va guruhda ishlash; ➤ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ➤ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ➤ individual va guruhda ishlash; ➤ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ➤ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ➤ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ➤ yakka va guruhda ishlash; ➤ muqobil variantlarni amalga qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ➤ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ➤ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Blits – so‘rov” usuli

“Blits–so‘rov” usulidan foydalanishning maqsadi: Talabalarda mantiqiy fikrlash, fan yuzasidan berilgan ma’lumotlar orasidan kerakligini ajrata olish qobiliyatini shakllantirish, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish, boshqalar bilan hamfikir bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni, tarixiy jarayon ketma–ketligini aniqlash orqali shakllantirish.

O‘tkazish texnologiyasi:

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1. O‘qituvchi talabalarga ushbu mashg‘ulot, bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi va undan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ogohlantiradi. Tarqatma materiallar tarqatib, talabalarga uni sinchiklab o‘rganish zarurligini aytadi.
2. Talabalar dastlab tarqatma materialdagi “Yakka baho” bo‘limiga o‘zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma–ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi. Unga 5 minut ajratiladi.
3. Talabalarning yakka tartibdagi ishlari tugagach, o‘qituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tuzishini so‘raydi. Ular hamfikrlikda tarqatma materialdagi “Guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar. Unga 5 minut ajratiladi.
4. Barcha kichik guruhlarda ishlar tugagach, o‘qituvchi harakatlar ketma–ketligi bo‘yicha to‘g‘ri javobni beradi va talabalar “To‘g‘ri javob” bo‘limiga raqamlarni yozib chiqadilar.
5. O‘qituvchi “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlar bilan “Yakka baho” va “Guruh bahosi” bo‘limidagi raqamlarni solishtirib, katta–kichikligini ayirib, farqini chiqarib, “Yakka xato” va “Guruh xatosi” bo‘limlariga yozishlarini so‘raydi.
6. O‘qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo‘yicha tushuncha beradi va ularni alohida sharhlaydi.
7. Talabalar tarqatma materialda berilgan ballar asosida o‘z bahosini chiqaradilar va ular jurnalga qayd qilinadi.
8. Mashg‘ulot yakunlangach, o‘qituvchi mashg‘ulotni o‘tkazish jarayonida talabalarning va guruhlarning faoliyati to‘g‘risida o‘z fikrini bildiradi.

Arxeologik davrlashtirish

(“blits-so‘rov” uslubi)

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Davrlar nomi
					Mezolit
					Ilk temir davri
					Bronza
					O‘rta asrlar
					Neolit
					Eneolit

					Antik
					Ashel
					Arxaik
					Olduvay

6-5 to'g'ri javob "qoniqarli" 8-

7 to'g'ri javob "yaxshi"

9-10 to'g'ri javob "a'lo"

Charxpalak texnologiyasi.

1-misol. Maqsad tinglovchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda bayon eta olish, o'zlarini baholash hamda yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o'rgatish.

O'tkazish texnologiyasi:

1. Tinglovchilar (sharoitga qarab) guruhlariga ajratiladi.
2. O'qituvchi mashg'ulotni o'tkazish qoidalarini tanishtiradi.
3. Tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
4. Dastlab guruh a'zolari yakka tartibda berilgan vazifani ishlab chiqishadi va tarqatma materialning o'ng tomoniga o'z belgisini yoki ismi familiyasini yozadi. Talaba to'g'ri deb bilgan javobini + belgisi bilan ruchkada belgilab chiqadi. 10 minut ajratiladi.
5. Bajarilgan vazifa boshqa guruh a'zolari bilan almashtiriladi. Ular ham tarqatma materialning chap tomoniga o'zining belgisi yoki ismini yozib, qaytadan x belgisi bilan to'g'ri javobini belgilaydilar. Unga 5 minut ajratiladi.
6. Tuzatilgan, o'zgartirilgan materiallarni yana bir marta guruhlar bo'yicha almashtirish mumkin.(guruhlar soniga qarab)
7. Oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'latgan materialni tanlab oladilar va unda belgilangan javoblar taqqoslanadi va tahlil qiladilar.
8. O'qituvchi tarqatma materialda berilgan to'g'ri javobni o'qiydi va talabalar ularni o'z javoblari bilan solishtirib boradilar.
9. Har bir talaba to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar o'rtasidagi farqni aniqlab, to'plagan balini xisoblab, o'zini o'zi baholaydi.

No	Manzilgohlarning nomi	Ilk paleolit	O'rta paleolit	So'nggi paleolit	Ilk mezolit	So'nggi mezolit
1	Selo'ngir					
2	Qo'tirbuloq					
3	Siyobcha					
4	Xo'jamazgil					
5	Teshiktosh					
6	So'x					
7	Obiraxmat					
8	Uchtut					
9	Machay					
10	Ittakqal'a					

11	Obishir					
12	Xo'jakent					
13	SHo'rko'l					
14	Qayla					
15	Ko'shilish					
16	Machay					
17	Bo'zsuv					
18	Zarautsoy					
19	Takalisoy					
20	Samarqand					

9-12 to'g'ri javob "qoniqarli"

13-16 to'g'ri javob "yaxshi"

17-20 to'g'ri javob "a'lo"

Charxpalak texnologiyasi.

2-misol. Maqsad: talabalarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda bayon eta olish, o'zlarini baholash hamda yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga xurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o'rgatish.

O'tkazish texnologiyasi:

1. Talabalar (sharoitga qarab) guruhlariga ajratiladi.
2. O'qituvchi mashg'ulotni o'tkazish qoidalarini tanishtiradi.
3. Tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
4. Dastlab guruh a'zolari yakka tartibda berilgan vazifani ishlab chiqishadi va tarqatma materialning o'ng tomoniga o'z belgisini yoki ismi familiyasini yozadi. Talaba to'g'ri deb bilgan javobini + belgisi bilan ruchkada belgilab chiqadi. 10 minut ajratiladi.
5. Bajarilgan vazifa boshqa guruh a'zolari bilan almashtiriladi. Ular ham tarqatma materialning chap tomoniga o'zining belgisi yoki ismini yozib, noto'g'ri deb bilgan javoblarni x belgisi bilan to'g'ri javobini belgilaydilar. Unga 5 minut ajratiladi.
6. Tuzatilgan, o'zgartirilgan materiallarni yana bir marta guruhlar bo'yicha almashtirish mumkin.(guruhlar soniga qarab)
7. Oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'latgan materialni tanlab oladilar va unda belgilangan javoblar taqqoslanadi va taxlil qilidilar.
8. O'qituvchi tarqatma materialda berilgan to'g'ri javobni o'qiydi va talabalar ularni o'z javoblari bilan solishtirib boradilar.
9. Har bir talaba to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar o'rtasidagi farqni aniqlab, to'plagan balini xisoblab, o'zini o'zi baholaydi.
10. Talabalarning baholari sinf jurnaligi qayd qilinadi va mashg'ulot

to'g'risida o'qituvchi o'z fikr va mulohazalarini bildiradi.

Ibtidoiy davr xususiyatlarini aniqlang.

(Charxpalak texnologiyasi.)

№	Davr xususiyatlari	Paleolit	mezolit	neolit	eneolit	Bronza
1	Dehqonchilik vujudga kelgan					
2	O'q-yoy ixtiro qilingan					
3	Muzlik davri hukmron bo'lgan					
4	Sun'iy olov ixtiro qilingan					
5	Sopol ixtiro qilingan					
6	Odamlar g'orlarda yashagan					
7	Chorvachilik vujudga kelgan					
8	Odamlar ko'chmanchi hayot kechirishgan					
9	Neandertal odam yashagan					
10	Ijtimoiy tengsizlik vujudga kelgan					
11	Mikrolit qurollar ishlab chaqarilgan					
12	Sug'orma dehqonchilik vujudga kelgan					
13	Bug'ular ovlangan					
14	Ilk shaharlar vujudga kelgan					
15	Mis ixtiro qilingan					
16	Makrolit qurollar ishlangan					
17	Nukleuslar ishlangan					
18	Mustahkamlangan qishloqlar v/k					
19	Patriarxat davri boshlangan					
20	Qoya tosh suratlar					

ko'p ishlangan					
----------------	--	--	--	--	--

9-12 to'g'ri javob "qoniqarli"
 13-16 to'g'ri javob "yaxshi"
 17-20 to'g'ri javob "a'lo"

2. "Assesment" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

"Assesment" lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin. Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

Test	Qiyosiy taxlil
1. Arxeologiya atamasi ilk bora kim tomonidan qo'llanilgan? A. Aflotun B. Geradot C. Gipparx D. Arrian	Arxeologiya va Antiquaries atamalarini qiyosiy taxlil qiling
Tushuncha tahlili	Amaliy ko'nikma
Arxeologiya atamasini izoxlang.....	Arxeologik yodgorliklar turlarini tasniflashni o'rganing

3. "Tushunchalar tahlili" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ✓ ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- ✓ o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar

- ✓ nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- ✓ o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday
- ✓ holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- ✓ belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning
- ✓ tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- ✓ har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy
- ✓ munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini
- ✓ tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Arxeologiyada tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi	Qo‘shimcha ma’lumot
Arxeologiya	Arxayos-qadim va logos-fan ya’ni o‘tmish xaqidagi fan degan ma’nolarni anglatadi	
Antiquitates	Rimlik mualliflar yunoncha arxeologiya termini o‘rnida antiquitates-qadimiyot terminini qo‘llashgan.	
Antiquaries	Rimlik mualliflar yunoncha antiquitates-qadimiyot sohasi vakillarini esa «antiquaries» - antikvariylar, ya’ni qadimiy topilmalar xavaskorlari deya atashgan.	
Olduvay, ashel, mustye va so‘nggi paleolit	Arxeologik davr xisoblanmish paleolit ya’ni qadimgi tosh davri bosqichlari	

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: Fanning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi, arxeologik materiallar – tarixiy manba sifatida

Режа:

- 1.1. Arxeologik materiallar – tarixiy manba sifatida.
- 1.2. Arxeologik ma’lumotlarni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilishning ilmiy ahamiyati.

Tayanch iboralar: yozma manbalar, etnografik tadqiqotlar, ashyoviy manba, paleogeografiya, paleobotanika, paleozollogiya, tarixiy va etnik geografiyasi, yodgorliklar kartografiyasi

Yozma manbalar va etnografik tadqiqotlar qadimgi jamiyatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Biroq, yozuv noma’lum bo‘lgan va ilk yozuv rivojlangan davrlar tarixini qayta tiklash ko‘proq arxeologik ma’lumotlari bilan bog‘liqdir. Ular ashyoviy manba sifatida muayyan o‘tmish bosqichlar mahsuloti bo‘lib, turli tarixiy davrlar haqida turlicha axborotni o‘zida aks etgan.

Shu bois mazkur axborotni qo‘lga kiritish, o‘rganish va talqin qilish, tarixiy masalalariga oid rekonstruksiya usullarini ishlab chiqishi arxeologiya tadqiqotlarida o‘z dolzarbligi bilan ajralib turadi. Bu borada fanlararo manbalardan foydalanish, shu jumladan paleogeografiya, paleobotanika, paleozollogiya, tarixiy va etnik geografiyasi, yodgorliklar kartografiyasi manbalarini hisobga olish muhimdir.

Tarixning eng qadimgi davrlaridan boshlab, inson mehnat faoliyati ijtimoiy munosabatlar doirasida amalga oshirilgan. Ishlab chiqarish va ijtimoiy aloqalar mehnatning muhim sharti bo‘lgan. Tabiatda mavjud oziq – ovqat mahsulotlarining o‘zlashtirish jarayoni quyidagicha: inson-moddiy ishlab chiqarish – tabiiy muhit – foydalanish obyektlari – mehnat

qurollari – fauna va flora turlari kabi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishda rivoj topgan.

Arxeologiya fanida inson va atrof muhitning o‘zaro munosabatlari, paleogeografiya va antropogen landshaftning taraqqiyoti omillari, insonning faoliyati va turmush tarziga tabiiy – geografik sharoitning ta’siri, shuningdek aksincha, odamlar jamiyatning ishlab chiqarish va tabiiy resurslardan foydalanish oqibatida atrof muhitga ijtimoiy – iqtisodiy ta’sir darajasini aniqlash dolzarb vazifaga aylangan.

Uzoq o‘tmishdan boshlab, aholining turlicha tabiiy – geografik sharoitda joylashganligi ma’lum. Tabiiy muhit jamoa ishlab chiqarish, moddiy va ma’naviy madaniyati rivojlanishining asosi bo‘lib, turli shakllardagi xo‘jalik – madaniyatlarni vujudga keltirgan edi. (termachilar, baliqchilar, ovchilar, ziroatkorlar va chorvadorlar madaniyatlari) xo‘jalik madaniy tiplarning birligi yaqin tabiiy – geografik muhit bilan bog‘liq bo‘lgan holda, bir xil ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilangan.

XX asrning 70- yillariga kelib, O‘rta Osiyo arxeologiyasi fanida hayot sharoiti, inson turmush tarzi va madaniyatining rekonstruksiya, ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot, ayriboshlash va savdo – sotiq tizimi, ilk shaharlar va davlatlar tarixini qayta tiklash masalalari muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu bois, turli manbalarga asoslangan holda, etnik aloqalar va etnomadaniy jarayonlar rekonstruksiya, ijtimoiy va iqtisodiy tuzilishi hamda e’tiqodlar, diniy qarashlar, ya’ni ma’naviy madaniyatning qayta tiklash uslublaridan keng foydalanish boshlandi.

Manbashunoslik, arxeologiya, etnografiya asosida shakllangan etnogeografiya fanning vazifalari xalqlar (etnik birliklarning) geografik joylashishi, uning xususiyatlari va boshqa xalqlar bilan o‘zaro munosabatlari xududiy joylashishi, uning xususiyatlari va boshqa xalqlar bilan o‘zaro munosabatlari, hududiy joylashish chegaralari, hududlarni o‘zlashtirish darajasi, aholining zichligi va boshqa masalalarni o‘rganish

iboratdir. Mazkur masalalarning rekonstruksiya, etnik jarayonlari

kartografiyasiga mo'ljallangan manbalarni mukammal o'rganish, turlicha mazmunga ega materiallardan keng foydalanish va tarixiy voqelikka yaqin natijalar beruvchi kartografiya qoidasini tanlab olish – dolzarb vazifa.

Tarixiy rekonstruksiya masalalari obyektini fanlararo manbalar va ilmiy ma'lumotlar tashkil etganligi sababli tarixiy – madaniy jarayonlarni qayta tiklashda fanlararo usullari va 3 D (uch o'lchamli) texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega shu bois tarixiy rekonstruksiya masalalariga oid manbalarni tizimlashtirish, o'rganish qiyosiy tahlil qilish hamda tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish va xulosalar chiqarish o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

2-mavzu Qadimgi jamiyatlar xo'jaligini o'rganish muammolari

2.1. Qadimiy jamiyatlar ishlab chiqaruvchi xo'jaligining o'rganishga oid zamonaviy ilmiy nazariyalar.

2.2. Arxeologik ma'lumotlar asosida paleodemografiya masalasini o'rganish

Tayanch iboralar: Oziq – ovqat, resurslar, o'simlik va hayvonot, xo'jalik sohalari, paleozoologiya, paleobotanika.

Oziq – ovqat mahsulotlarni qo'lga kiritish qadimgi ijtimoiy - iqtisodiy tizimda bosh vazifaga aylangan. Ibtidoiy davrlarda u xo'jalik sohalari rivojlanishining asosiy omili bo'lgan. Etnografiya ma'lumotlarni hisobga olgan holda, ozuqa bilan ta'minlash jarayonlari rekonstruksiyasida quyidagi jihatlar e'tiborga molik: foydalanish obyektlari (hududdagi resurslar, o'simlik va hayvonot olami turlari), ozuqani qo'lga kiritish va unga ishlov berish mehnat vositalari, inson bilimlari, ko'nikmalari va tajribasi.

Bundan kelib chiqqan holda, xo'jalik sohalarini qayta tiklashda, arxeologiya manbalardan tashqari, paleozoologiya va paleobotanika manbalarini hamda mehnat qurollari funksiyalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Paleolit davrida termachilikka nisbatan oziq – ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda ovchilik yuqori kaloriyali ozuqani qo'lga kiritishning asosiy usuliga aylangan. Misol tariqasida odam paydo bo'lishining eng qadimgi makoni hisoblangan Sharqiy Afrikadagi ibtidoiy ovchilar kemiruvchi hayvonlar, kaltakesaklar, toshbaqalar qatori yirik hayvon filni ovlashga xarakat qilganlar. Shuningdek, odamlar meva, yong'oqlarni terib va ildizlarini kovlab tirikchilik qilganlar.

O'zbekiston hududdida Teshiktosh, Obirahmat, Ho'jakent kabi g'or – makonlarida yashagan paleolit davri odamlarining hayotida tog' echkisini ov qilish ustunlik qilgan. Misol uchun Teshiktosh g'oridan topilgan yovvoyi hayvonlarning suyaklari orasida bug'u, ot, ayiq va quyon suyaklariga nisbatan tog' echkisini suyak qoldiqlari mutlaq ustunlik qilgan.

O'rta paleolit va ayniqsa, so'nggi paleolit davrida birlashgan ovchilar guruhlaridan tomonidan hayvonlarni qurshab olib tutish yoki ularni tikka kesib tushgan jarliklarga quvib xaydash kabi ov usullari qo'llanilgan. Natijada, ommaviy ravishda, tuyoqli hayvonlar galalari va yovvoyi otlar uyirlari halok bo'lgan. Shuningdek, alohida katta hayvonni tanlab olib ovlash usuli rivojlangan.

Mezolit va neolit davrlarida O'rta Osiyoning keng hududlarini o'zlashtirilishi jarayoni urug' jamoalarining xo'jalik ehtiyojlarini qondirish, oziq – ovqat va ichimlik suv manbalari, hayvonot va o'simlik olami boy hududlarni egallab olish mehnat qurollari yasash uchun tosh konlaridan foydalanish zarurati bilan belgilangan.

Ovchilar, baliqchilar va termachilarning urug'chilik jamoalarini qon – qarindoshlik aloqalari, umumiy mulk va mehnat qurollari, umumiy mehnat va turmush tarzi birlashtirgan.

Mezolit davri yodgorliklarida topilgan chaqmoqtosh qurollarini o'rganish natijasida ularning orasida ov qurollari 60 foizini tashkil etishi aniqlandi. Ular nayza va o'q uchlari, tosh qirg'ichlar hamda ov o'ljasi – so'yilgan tuyoqli hayvonlarning nimitlanmagan go'shtini bo'lish uchun mo'ljallangan tosh pichoqlarning qadamalaridan iboratdir. Boshqa keskich va

teshgich tosh qurollari yog‘och, teri suyak, tosh va chig‘anoqlarga ishlov berish bilan bog‘langan ov qilish jamoatchilik asosida hamda o‘q yoy yordamida yakka tartibda amalga oshirilgan.

“Neolit inqilobi” – dexqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi oqibatida O‘rta Osiyo tarixida oziq – ovqat mahsulotlarini qo‘lga kiritishning yangi usuli ishlab chiqarish xo‘jaligi rivoj topdi.

Umuman olganda bu davr tarixiga oid quyidagi muhim xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Ilk paleolit davri mehnat qurollari o‘zining soddaligi va qo‘polligi bilan keyingi davrlarning mehnat qurollaridan ancha farq qiladi. Makonlar suvga yaqin, yerlarda joylashgan. Eng qadimgi odamlar dastlab to‘da bo‘lib yashaganlar. Makonlarda topilgan hayvon suyaklari va tosh qurollarning xususiyatlari eng qadimgi odamlar ovchilik va termachilik bilan shug‘ullanib, shu asosda hayot kechirganligini ko‘rsatadi.

Shubhasiz ma‘lumki, u paytda odamlarning aqliy va jismoniy rivojlanish darajasi ularga yakka-yakka yashash uchun hech qanday imkoniyatlar yaratib bermagan. Ularning oziq-ovqat zahiralari chegaralangan edi, bundan tashqari, yakka yashagan, odamlar yirik yirtqich hayvonlarning hujumidan o‘z hayotlarini saqlay olmasdilar. Ochlik xavfi va ko‘p vaziyatlarda noma‘lum tabiiy jarayonlar eng qadimgi odamlarni to‘da bo‘lib yashashga majbur qilgan. Olimlar fikriga ko‘ra, ilk paleolit davridagi iqlim issiq bo‘lganligi uchun odamlarning uy-joy va kiyimga ehtiyoji bo‘lmagan.

2. O‘lkamizda topib tekshirilgan o‘rta paleolit davri makonlari, asosan, g‘orlarda joylashadi. Demak, muzlik bosib kelishi bilan boshpana zarur bo‘lib qolib, odamlar tabiiy pana joylar - g‘orlarni egallashga harakat qilganlar. Muzlik davrida neandertal odamlari murakkab sinovlardan o‘tgan. Odamlarning asosiy mashg‘uloti ovchilik bo‘lib, bu jarayon ko‘p sonli va turli shakllardagi qurollarni ishlab chiqarishni talab etgan va eng qadimgi xo‘jalikning asosi bo‘lib xizmat qilgan. Odamlar asta- sekinlik bilan yirik hayvonlarini ham ov qilishni o‘rganib bordi, ular

olovdan foydalanish va uni saqlashga harakat qildilar. Uzluksiz mehnat asosida inson aqliy va jismoniy jihatdan o'zgarib bordi.

3. Olov - sovuqdan va yirtqich hayvonlardan saqlanish, ovqat pishirish uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Avvalo o'tni egallash o'rmondagi yong'inlardan, tabiiy o'tlardan foydalanishdan boshlangan. Bunday o'tlarni o'chirmasdan, uzoq vaqt davomida saqlab turish va bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin bo'lgan. Shu bilan birga, odamlar yog'ochlarni ishqalash yo'li bilan va chaqmoqtoshlardan o't chiqarish yo'llarini topganlar.

4. Odamlar yirik hayvonlarni ov qilishi natijasida ovchilikning usullari ko'payib borgan (hayvonlarni o'rab olish, botqoqlikka haydash, jarga qulatishtirish va boshqalar). Hayvonlarni ovlash jarayoni mehnatni maqsadli tashkil qilishni talab etgan. So'nggi paleolitda qurollar yasashning yangi usullari vujudga kelgan. Qurollar tosh parrakchalardan yasalib, ko'pincha nukleuslarning (nukleus - tosh o'zak) yangi shakllari bilan bog'lanadilar va qurollarning xili ko'paya boshlaydi.

5. So'nggi paleolit davrida zamonaviy qiyofali odam keng hududlarni o'zlashtirdi. Zamonaviy qiyofali odamning paydo bo'lishi sabablaridan biri - bu jamoada yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohning man qilinishi bo'lib, ushbu jarayon odamning jismoniy turini biologik jihatdan tez o'zgarishiga olib kelgan.

So'nggi paleolit davrining muhim xususiyatlaridan biri – ibtidoiy to'dadan urug' jamoasiga o'tilishidir. Urug'chilik tuzumining boshlang'ich va asosiy shakli matriarxat - ona urug'idan iborat bo'lgan. Urug'chilik tuzumi inson hayotidagi bir qator ijobiy o'zgarishlarning paydo bo'lishiga asos solgan. Manzilgohlar ov qilinadigan joylar bilan bog'langan, bu joylarga qarindosh-urug'lar ega bo'lib, ular ovchilik bilan tirikchilik o'tkazganlar, shuningdek baliqchilik rivoj topgan.

Hunarmandchilik mashg'ulotlari o'zlashtiruvchi va ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarga nisbatan oziq - ovqat mahsulotlarni qo'lga kiritish yoki ishlab chiqarish vazifalaridan yiroq bo'lsa-da, biroq insoniyat madaniyatining taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Mazkur tarixiy

voqelikni hunar mashg'ulotlarning dastlabki bosqichlardagi kiyim tikish, marjonlar yasash, buyra va savatlar to'qishdan boshlab, kulolchilik, qurolsozlik, zargarlik, to'qimachilik rivojlanishida kuzatish mumkin.

Hunarmandchilik xonaki kasblar va ixtisoslashgan hunar shakllariga ajratilgan holda o'rganiladi. Xonaki hunar kasblari ichki iste'mol bilan bog'liq bo'lib cheklangan ijtimoiy guruhlarining extiyojlarini qondirishga yo'llangan, shuningdek ortiqcha mahsulotdan ayriboshlashda foydalanilgan. Ixtisoslashgan hunarmandchilik qadimiy iqtisod tizimida mustaqil tarmoqlarni tashkil etib, savdo – sotiq bilan bog'langan.

Arxeologiya fanida xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlari va mukammaligi (misol tariqasida qo'lda va charxda yasalgan sopol idishlarning qiyoslash) hamda ishlab chiqarishning kasbiy darajasini aniqlash va boshqa belgilariga ko'ra ajratilib o'rganiladi.

O'rta Osiyoda bronza davriga kelib ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jaligining taraqqiyoti hunarmandchilik sohalari rivojini jadallashtirib, shu sohalarda metallga ishlov berish bronza buyumlarini ishlab chiqarish, qurolsozlik, kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik kasblarida texnologik yangiliklar va o'zgarishlar yuz berib, ixtisoslashgan hunarmandchilik vujudga keladi.

Shuningdek xonadon sharoitida toshdan, yog'ochdan, charmdan, teri va jundan buyumlar hamda kiyim va poyabzal yasash usullari va an'analari o'z ahamiyatini saqlab kelgan.

Mintaqa tarixining turli davrlarda (bronza, ilk temir va antik davri, ilk o'rta asrlar) patriarxal oilalarning xo'jaligi ko'p jihatdan natural xususiyatga ega bo'lib jamoalar turmush tarzi, hayot uchun zarur mahsulotlarni (g'alla, un, yog', go'sht, jun) qo'lga kiritish, ya'ni o'zini – o'zi ta'minlash, ishlab chiqarilgan mahsulotning ma'lum qismi miqdoridan soliq to'lash va ayriboshlash, savdo – sotiq jarayonida foydalanilgan.

Arxeologik tadqiqotlarda ishlab chiqarish markazlarning hududiy joylashning aniqlash, hunarmandchilik ustaxonalarini va turli kasb hunar

sohalarida foydalanilgan asbob qurollarini o'rganish o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xonaki va ixtisoslashgan hunarmandchilik tarixi qayta tiklanadi.

Mezolit davriga kelib yer yuzidagi ulkan muzlikning yana shimolga tomon siljishi natijasida iqlim barqarorlashib hozirgi davrdagiga ancha o'xshab qolgan edi. Buning natijasida O'rta Osiyo hayvonot olami va o'simliklar dunyosida ancha o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Paleolit davrining yirik hayvonlari yo'qola borib, ular o'rniga kichik tuyoqli, tez yuguruvchan hayvonlar - jayron, sayg'oq, bug'ular, tog' echkisi, arslon, yo'lbars, qoplon, quyon kabilar ko'paya boradi. Shuningdek, janubga xos issiqsevar, yovvoyi boshhoqli o'simlik va daraxtlar ham tobora ko'payib bordi. Tabiat va iqlimdagi bu o'zgarishlar mezolit davri kishilarining hayotida ham o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi.

Bu davrga kelib kishilar nisbatan nozikroq qurollar tayyorlashni o'zlashtira boshladilar. Xususan, janubiy o'lkalarda, shuningdek, O'rta Osiyoda turli geometrik shakldagi mayda qurollar - mikrolitlar paydo bo'lib ular uchun suyak va yog'och dastachalardan qadama sifatida foydalanilgan. Undan tashqari, bu davrda insoniyat o'z tarixidagi dastlabki murakkab moslama - o'q-yoyni kashf etdi. Natijada chopqir, kichik tuyoqli hayvonlar va parrandalarni ov qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Mazkur davrning eng katta yutuqlaridan yana biri yaqin Sharq hududlarida yovvoyi hayvonlar - it, qo'y, echki kabilarning qo'lga o'rgatilib, xonakilashtirilishi bo'ldi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mezolit davrida Old Osiyoning ba'zi viloyatlarida termachilikdan yovvoyi o'simliklarni xonakilashtirishga hamda ovchilikdan chorvachilikka o'tish boshlanadi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va tabiiy-geografik sharoit bilan bevosita bog'liq edi.

Mezolit davrining mashhur yodgorliklaridan biri Surxon vohasidagi Machay (Boysun) g'or-makonidan ko'plab suyak va tosh qurollar topilgan. Suyak qurollar bigiz, igna, so'zan kabilardan iborat bo'lsa, tosh qurollar - pichoqlar, arrasimon qurollar, kesgichlar, ushatgich toshlar, nayza va o'q

uchlari kabilardir. Bu qurollarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'lsa ham yaqin Sharqdagi mezolit yodgorliklaridan topilgan tosh qurollarga o'xshab ketadi.

Machay makonidan odam bosh suyaklari, tishi, jag'i va boshqa qismlari qoldiqlari topilgan bo'lib, bu topilmalarni o'rganish tadqiqotchilarga O'rta Osiyoning janubidagi mezolit davri kishilarining yevropoid irqiga mansub ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Machay g'orida bo'ri, tulki, bars, mo'ynali suvsar, quyon, jayra, olmaxon kabi hayvonlarning ham suyak qoldiqlari topilgan. Machaylik mezolit davri odamlari olovdan keng foydalanganlar hamda hayvon va parranda go'shtlarini olovda pishirib yeganlar.

Farg'ona vodiysidan mezolit davriga oid Obishir g'or-makonidan tosh qurollar, bigizlar, qirg'ichlar, pichoq qadamalari topilgan. Shuningdek, topilmalar orasida yovvoyi hayvonlarning maydalangan va sindirilgan suyaklari, baliq tutishda ishlatiladigan qadoq toshlar ham bor. Topilgan ashyolarga asoslanib obishirliklar baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan shug'ullangan deyishimiz mumkin.

Markaziy Farg'ona hududlaridan SHo'rko'l, Achchiqko'l, Yangiqadam, Bekobod, Zambar, Toypoqko'l kabi 80 ga yaqin mezolit davri yodgorliklari aniqlandi. Ularning ko'pchiligi ko'l yoqalaridan topilgan bo'lib aftidan bu joylar mezolit davri kishilarining yashashlari uchun ko'pgina qulayliklarga ega bo'lgan. Bu yerlardan topilgan ko'pgina qurol va tosh buyumlar o'zining nisbatan nozikligi, ixchamligi bilan paleolit davri qurollaridan ajralib turadi. Markaziy Farg'onadagi mezolit davri qabilalari xo'jalik hayotida ovchilik, termachilik hamda baliqchilik ustunlik qilib, qulay tabiiy- geografik sharoit mazkur hududlarda qadimgi odamlarning keng tarqalib yashashlari uchun imkoniyat yaratgan.

Toshkentning g'arbida, qadimgi Bo'zsuv anhorini sohilida Qo'shilish mezolit makoni o'rganilgan. Ushbu makondan chaqmoqtoshdan ishlangan nukleuslar, mayda parrakchalar, uchrindilar, qirg'ichlar, har xil shakldagi qurollar, tosh pichoqlar, silliqlangan tosh qurollar topilgan. Qo'shilish

makoni topilmalari mil. avv. XI-X mingyilliklariga oid bo‘lib, bu yerda yashagan qadimgi qabilalar ovchilik va termachilik bilan shug‘ullanganlar.

Xullas, mil. avv. XI-X mingyilliklariga kelib Kaspiy bo‘ylaridan Pomir tog‘larigacha, Kopetdog‘ etaklaridan Markaziy Qozog‘istongacha bo‘lgan keng hududlarda mezolit davri qabilalari yoyiladilar. Ushbu hududlarning geografik sharoiti xilma-xil bo‘lib, mezolit davri makonlari past tekisliklar, daryo va soy bo‘ylari hamda tog‘ oldi hududlarida joylashgan. Bu davr qabilalari va urug‘lari ovchilik, baliqchilik hamda termachilik bilan kun kechirganlar.

3-mavzu. Ijtimoiy taraqqiyot tarixini arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiya

Reja

3.1. Iqtisod tarixini o‘rganishda arxeologik yondoshuv.

3.2. Ma‘naviy va madaniy tarixni o‘rganishning arxeologik manbalari.

Kalit so‘zlar: jamiyat, katta oilalar, ishlab chiqarish kuchlarni, uy- joylar, xususiy mulk, omillar ta’siri, ijtimoiy munosabatlar

Insoniyat tarixidagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyotida yirik o‘zgarishlar, jamiyatning tuzilishida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. So‘ngi paleolit davrida ona tomonidan qarindosh jamoalari ajralib, urug‘chilik tuzumi vujudga kelgan.

Arxeologiya fanida bundan Yevropa va Osiyo xududlarida topib tekshirilgan, katta turar joylarning qoldiqlari hamda tosh va suyakdan yasalgan ona mabudasi xaykalchalari darak beradi.

Mezolit davriga kelib ona tomonidan yaqin qarindoshlarni birlashtirgan ovchilar va baliqchilar urug‘ jamoalari, o‘z yashash hududi, nomi va madaniy-maishiy xususiyatlari bilan ajralib turgan. Etnografiya ma’lumotlariga ko‘ra, urug‘ jamoalari ibtidoiy jamiyatning ijtimoiy birligi-qabilani tashkil etgan. Turli qabilalarning vakillari bir-

biridan tashqi ko‘rinishda o‘ziga xos kiyim-kechak, bezaklar, soch tarashning ma’lum bir shakli, odamlarning peshona va yuzidagi mineral bo‘yoqlari bilan berilgan turli rangdagi belgilar bilan ajralib turgan.

Katta ona uy-joy o‘chog‘i xomiysi, ro‘zg‘or ishlarini nazorat qilgan va ichki ijtimoiy aloqalarini tartibga solgan. O‘z shaxsiy nufuzi, bilimlari va tajribasi bilan ajratib turgan kishilar xo‘jalik ishlarini tashkillatirgan va boshqaruv masalalarini amalga oshirgan.

O‘zlashtiruvchi xo‘jaliklarga asoslangan urug‘chilik jamoalarini umumiy turar joylar, turmush tarzi, e’tiqodlar, o‘zaro yordam, umumiy mulk, mehnat qurollari va oziq-ovqat zaxiralari birlashtirgan. Jamoa farovonligi uchun xamma barovar ishlagan.

Dehqonchilik va chorvachilik rivojlanishi oqibatida, jamiyat hayotida yangi madaniy o‘zgarishlar paydo bo‘lgan. O‘troq turmush sharoitida aholining aralash, bir hududda turli urug‘ jamoalarining joylashishi, ya’ni yangi hududiy tashkilot-hududiy qo‘shnichilik jamoasi vujudga kelgan.

Alohida katta oilalar ajralib chiqadi. Ular uy-joylar, xususiy mulk, tomorqa, chorva, oziq-ovqat zaxiralari va ishlab chiqarish qurollariga ega bo‘lganlar. Shunday qilib o‘zini iqtisodiy jihatdan ta’minlay oladigan katta oila jamoalari vujudga kelgan.

Jamoadagi o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtirish, tartibga solish, ichki va tashqi ijtimoiy munosabatlarni nazorat qilish o‘z tajribasi va amaliy bilimlari bilan boshqalardan ajralib turgan katta oilalar boshliqlari va urug‘ oqsoqollarning vazifasiga aylangan.

Ishlab chiqarish kuchlarning taraqqiy etishi, ijtimoiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning o‘sib borishi, ortiqcha mahsulotning paydo bo‘lishiga imkon bergan, mol ayriboshlash va iqtisodiy aloqalarning miqyosi, sifat va miqdor jihatdan o‘sib borgan.

Bunday holat alohida to‘q katta oilalar jamoalari tomonidan hususiy mulk, chorva soni, qishloq xujalik va hunarmandchilik mahsulotlarini ortirish uchun qulay sharoit yaratgan.

Jamoa boyliklari dastlab metal yombi, zargarlik buyumlari, metaldan ishlangan idishlar va qurollar sifatida to'plangan. Eniolit va bronza davriga oid manzilgoxlari va qabrlarda oltin, kumush, mis va bronzadan ishlangan buyumlar, bezaklar tasviriy san'at na'mualari xamda qimmatbaho toshlardan yasalgan marjonlar topilgan. Ularni o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlardan mulkiy tabaqalanish va ijtimoiy tizimni qayta tiklash jarayonida foydalanilgan.

Voha-tumanlardan iborat o'tiroq dehqonchilik viloyatlarda, umumiy urf-odatlar va e'tiqod marosimlari turli ijtimoiy guruhlarni birlashtirgan. Mil.avv IV ming yillikning oxirlaridan qadimgi Sharqda maxsus bunyod etilgan ibodatxonalar, ijtimoiy hayotning e'tiqod va diniy marosimlarni ado etish markazlari paydo bo'lgan. Mabudalar va odamlar o'rtasidagi vositachiga aylangan kinlarning faoliyati yuzaga kelgan. Hamda yer-mulklarga ega qishloq xo'jalik va hunarmandchilik ishlab chiqarishdan ibodatxonalar xo'jaligi vuudga kelgan.

Turli omillar ta'sirida ijtimoiy munosabatlar tarixi o'zgarib borga. Jamiyat hayotida va jamoalarning faoliyati sohalarda rejalashtirish, tashkil qilish, muvofiqlashtirish, tartibga solish va nazorat qilish kabi vazifalar birlamchi ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy tizimda turli qatlamlar-dehqonlar, cho'ponlar, binokorlar, hunarmandlar, xizmatkorlar hamda boshqaruv va nazorat funksiyalarini amalga oshirgan shaxslar ajralib chiqan.

O'zbekistonda bronza davri madaniyati yodgorliklari ko'p yillar tadqiqotlar natijasida turli viloyatlarda kashf etildi va muhim arxeologik ma'lumotlar fanga tatbiq qilindi (Y.G'.G'ulomov, S.P.Tolstov, M.A.Itina, A.A.Asqarov, Y.A.Zadneprovskiy, N.A.Avanesova, T.SH.Shirinov, B.Matboboyev, U.V.Rahmonov, SH.B.Shaydullayev va boshq.).

O'rta Osiyo aholisi bronza davri bosqichiga o'tgach, mahalliy ishlab chiqarish taraqqiyotida yangi davr boshlanadi. Bu davr mil. avv. III ming yillikning o'rtalari – II mingyillikka mansub bo'lib, bronza – mis bilan

qo'rg'oshin va qalay qotishmasidir. U o'z xususiyatlari bilan misdan ustun turadi, ya'ni bronza misga qaraganda qattiq va pishiqlik.

Bronza metallsozligining ilk vatani Kichik Osiyo va Ikkidaryo oralig'i bo'lgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya (Ikkidaryo oralig'i), Kichik Osiyo va Eronning janubi-g'arbiy qismida bronza davrida davlatchilik jamiyati keng ravnaq topgan. O'rta Osiy hududida ham ishlab chiqaruvchi kuchlar ancha taraqqiy topib, janubiy viloyatlarda ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning shakllari yangi asosda rivojlangan.

Mil. avv. III-II mingyilliklarda dehqonchilik va chorvachilik, O'rta Osiyoning dastlabki o'choqlaridan Sharq yo'nalishida hozirgi O'zbekiston va Tojikiston hududlariga keng tarqala boshlaydi. Bronza davridagi dehqonchilik aholisining tarixini o'rganish uchun O'zbekistonning turli viloyatlarida bir necha qadimgi yodgorliklar topib tekshirilgan.

Mazkur davrning xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri – bu qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishidan tashqari, mil. avv. II mingyillikning o'rtalariga kelib dasht hududlarida chorvachilikning maxsus xo'jalik sifatida rivoj topishidir. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir qildi. Ishlab chiqarishning o'sishi natijasida qadimgi qabilalarning iqtisodiy, ijtimoiy tarixi va moddiy madaniyati ham yangi asosda taraqqiy etgan.

Mil. avv. II mingyillikda dehqonchilik va chorvachilik O'rta Osiyo aholisi xo'jaligining asosiy sohalari bo'lgan. Bronzadan ishlangan qurollar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli, O'rta Osiyo dashtlarida yashagan qabilalar asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan. Qadimgi Sharqda shahar-davlatlar vujudga kelishi bilan hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqqan. O'rta Osiyo janubiy hududlarida mil. avv. III mingyillikning o'rtalari – II mingyillik boshlarida ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari rivoj topadi.

Bronzaning kashf etilishi bilan mehnat qurollarining turlari ham ko'paydi. Bronzadan xanjar, pichoq, nayza, o'roq, jez oyna, bigiz, munchoq,

tamg'a, idish va boshqa buyumlar yasalgan. Ammo tosh butun bronza davri davomida ham metall bilan muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilib, qurollar ishlash manbai sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Toshdan pichoqlar, o'roqlar, o'q va nayza uchlari ham yasalgan. Yorg'uchoqlar avvalgidek qumtoshlardan ishlangan, terini qayta ishlashda chaqmoqtoshdan keng foydalanishgan.

Bronza davrida maxsus kulolchilik ishlab chiqarish vujudga kelgan. O'rta Osiyoning turli viloyatlarida (Kopetdog' oldi, Quyi Murg'ob vohasi, Janubiy O'zbekiston) mutaxassis kulollar paydo bo'lgan. Mil. avv. II mingyillikda charx kulolchilik hunariga keng joriy etiladi. Charxning ixtiro qilinishi kulollarning ishini tezlashtirish va sopol idishlarning sifatini yaxshilash zaruratidan kelib chiqqan. Kulolchilik charxining ixtiro qilinishi natijasida sopol idishlarning shakllari ko'paygan.

Bronza davrida sopol idishlar tayyorlash takomillashdi. Katta hajmdagi xum va xumchasimon idishlarda don va suyuq mahsulotlar saqlangan. Ko'za, tuvak, kosa, tovoqsimon idishlardan uy ro'zg'orda keng foydalanilgan. Idishlar sifatli bo'lishi uchun loy tayyorlashga toza sof tuproq tanlangan. Sopollarning sirtiga qizil, sariq, jigarrang bo'yoq – angob berilgan. Idishlardan suv tashish, ovqat va don saqlash uchun keng foydalanilgan. Ovqat pishirish uchun ishlatilgan qozonlar qo'lda yasalgan.

Bu davr tarixiy-madaniy jarayonlari asosan moddiy topilmalar yordamida o'rganiladi. Qadimshunoslar tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlari mintaqada yashagan qabilalarning madaniy- iqtisodiy munosabatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Turkmaniston, O'zbekistan va Tojikiston hududlarida rivojlangan ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar asosida muhim madaniy yutuqlar vujudga kelgan. O'rta Osiyo janubiy viloyatlarida bronzadan buyumlar yasash, kulolchilik, zargarlik, to'quvchilik, ip yigirish va to'qimachilik maxsus kasb-hunarlariga aylangan. O'sha davrda kanal qazib, daryolardan suv chiqarish, kanal va ariqlarni doimo tozalab turish, ya'ni sun'iy sug'orish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Dehqonchilikda don (arpa, bug'doy, javdar) ekish, chorva uchun

xashak bo'ladigan o'simliklar o'stirish, sabzavot va mevalilik rivojlantirilgan.

O'zbekiston tuprog'ida bronza davriga oid madaniyatlar bir xilda taraqqiy topgan emas. Bu bosqichda Surxondaryo, Zarafshon va Xorazm vohalaridan iborat uch o'lkaning madaniy taraqqiyotida o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgan. Bu madaniyatlar dehqonchilik, uy chorvachiligi va chorvachilik-dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarga mansubdir. Ular bir-biridan ajralgan holda taraqqiy etgan emas, qabilalar o'rtasida keng madaniy aloqalar rivoj topgan.

Janubiy O'zbekiston (Surxondaryo) o'troq ziroatchi aholisining dastlabki markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu viloyatdagi bronza davriga oid Sopollitepada to'rtburchakli me'morchilik shakldagi istehkom qazib ochildi. Uning ichida uy-joylar, ro'zg'or va xo'jalik xonalari, hunarmandchilik ustaxonalarining qoldiqlari topildi. Sopollitepada 8 ta guzarga tegishli uy-joylar tekshirilgan.

Moddiy manbalar Sopollitepada kulolchilik va metallsozlik yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Kundalik hayotda xilma-xil kulolchilik buyumlaridan foydalanilgan. Tuvak, xumcha va xumlar chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini saqlash uchun ishlatilgan. Bronzadan xanjarlar, o'q uchlari, nayza paykonlari, pichoqlar, jez ignalar, to'g'nag'ichlar va idishlar ishlangan.

Amudaryoning so'l sohil hududlari (Shimoliy Afg'oniston) va Boysun-Ko'hitang tog' oldi vohalarida aniqlangan bronza davri yodgorliklari Dashtli - Sopolli madaniyati deb ataladi. Uning vujudga kelishi mil.avv. III mingyillikning oxirlari – II mingyillikning boshlarida ziroatchi aholisining tashqi migratsiyalari bilan bog'lanadi. Shuningdek, bu madaniyat kelib chiqishi jihatdan Quyi Murg'obdagi (Janubiy Turkmaniston) Gonur-Tug'aloq madaniyati bilan bog'langan bo'lib, fanda bronza davri Baqtriya-Marg'iyona sivilizatsiyasi deb e'tirof etilgan. Gonurning markazida mudofaa devorlar va to'rtburchak burjlar bilan mustahkamlangan yirik saroy joylashgan. U taxt zali va 120 dan ziyod katta -

kichik xonalardan iborat bo'lgan. Saroy atrofida otashparastlik, hosildorlik, qurbonlikka bag'ishlangan ibodatxonalar hamda alohida xalqa shaklda katta otashkadalar (diametri 7-11 metr) bunyod etilgan. Bu qism ham mudofaa devorlar bilan o'ralgan. Uchinchi mudofaa devor saroy va ibodatxonalar xizmatchilari yashagan qismini himoya qilgan.

Amudaryoning o'ng qirg'og'i yerlarida shakllangan Sopollitepa – bronza davridagi daryo kechuvidan boshlangan aloqa yo'lini himoya qiluvchi mustahkam istehkom sifatida paydo bo'lgan. O'troq dehqonchilik jamoalari chegaralarining kengayishi munosabati bilan Sopollitepa o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Asosiy markaz vazifasi esa, tog' darasidan chiquvchi yo'l ustidagi yirik markaz hozirgi Sherobod yaqinida joylashgan Jarqo'tonga o'tadi.

Jarqo'ton ibodatxonasi

Jarqo'ton bronza davri shahar ko'rinishiga ega bo'lib, qal'a va aholi turar joyi qismidan iborat bo'lgan. Jarqo'tonda jamoa sardorining saroyi va olovga sig'inish e'tiqodi bilan bog'liq ibodatxona qoldiqlari topilgan. Sherobod vohasi tog' oldida bronza davriga oid G'ozqal'a o'rganilgan. Yodgorlik tuz konlari atrofida joylashgan va uning aholisi qadimda tuz savdosi bilan shug'ullangani ehtimoldan holi emas. G'ozqal'ada ilk bor O'rta Osiyo bronza davriga oid tosh me'morchiligi aniqlandi. Sherobod vohasida yana bir yodgorlik – Burguttepa doira shaklida bo'lib, toshdan qurilgan mudofaa devorlariga ega.

Arxeologik ma'lumotlar bronza davri e'tiqodlari va diniy qarashlarining yangi asoslarda o'rganish uchun imkon yaratdi. Qadimgi Baqtriyada aholi hayotida olov, suv, quyosh, yer va hosildorlik qadrlangan.

O'zbekiston hududida bronza davrida chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarning moddiy madaniyat yodgorliklari Xorazm va Quyi Zarafshon vohasida o'rganilgan. Bu hududlarda Sopolli va Jarqo'tonda bo'lgani kabi xom g'ishtdan bunyod etilgan inshootlar (ibodatxonalar, uy- joylar, mudofaa devorlari, hunarmandchilik ustaxonalari) topilmagan.

Qadimgi Xorazm vohasi hududlarida Tozabog'yob madaniyatiga oid yarim

yerto‘la uy-joylardan sopol idishlar, toshdan va bronzadan ishlangan qurollar aniqlangan. Tozabog‘yob sopol idishlari qo‘lda ishlangan. Ular qozon, tuvaklar va kosasimon idishlardan iborat bo‘lib, xilma-xil geometrik chiziqlar bilan naqshlangan. Asosiy belgilarga ko‘ra, Tozabog‘yob madaniyati chorvachilik - dehqonchilik xo‘jalik - madaniy xilini o‘zida aks etgan, dehqonchilik chorvachilik xo‘jaligiga qo‘shimcha mashg‘ulot bo‘lgan. Tozabog‘yob madaniyati manzilgohlarida ziroatchilik mehnat qurollari kam miqdorda topilgan, don qoldiqlari esa (arpa, bug‘doy, suli) aniqlanmagan.

Quyi Zarafshon yerlari bronza davrida kamsuv bo‘lib, ular asosan chorvachilik uchun qulay bo‘lgan edi. Dehqonchilik ko‘proq Zarafshon toshqin suvlari irmoqlari hosil qilgan zax yerlarda rivojlangan.

Zamonbobo makonida yarim yerto‘la kulba-uy qoldiqlari ochilgan. Turar joyning uzunligi 23,5 m, eni 9 m. Makon maydonidan o‘choq o‘rinlari, hayvon suyaklari, mehnat qurollari va uy-ro‘zg‘or buyumlarining siniqlari topildi.

Mil. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmida Farg‘ona vodiysida Chust madaniyati rivojlanadi. U vodiya dehqonchilikning vujudga kelishi jarayonini aks ettirdi. Chust madaniyatiga oid 80 dan ortiq yodgorliklar aniqlangan. Yirik manzilgohlar (Chust, Ashkaltepa, Dalvarzin) voha-tuman markazlari vazifasini bajargan. Dastlab qadimgi Farg‘ona ziroatchilari yarim yerto‘la kulbalarda istiqomat qilishgan. Mil. avv. I mingyillikning boshlariga kelib guvala va xom g‘ishtdan qurilgan uy-joylar paydo bo‘lgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Bronza davrida O‘rta Osiyo Qadimgi Sharqning muhim madaniy markazlaridan biriga aylandi. Daryolar vohalarining qulay geografik sharoitida rivoj topgan dehqonchilik sun‘iy sug‘orishga asoslandi. Qadimgi manzilgohlarning atroflarida sug‘orish yerlari keng maydonlarga ega bo‘lgan. Daryolardan kanal chiqarish usullari ancha rivojlanib, bronza davri sug‘orilish xo‘jaligi dastlabki dehqonchilikdan ancha farq qilib, yerni haydab dehqonchilik qilishga asoslangan

Ziroatchilik bilan birga odamlar hayotida voha o‘tloqlarida hamda tog‘oldi va dasht yaylovlarida chorvani boqish muhim ahamiyatga ega edi.

Manzilgohlardan qo‘y, echki va sigir suyaklari topilgan. Misol tariqasida, Sopollitepada 16 mingtacha hayvon suyaklari topib, tekshirildi. Ularning asosiy qismi qo‘y va echki suyaklari, boshqalari esa tuya va sigir suyaklaridir. Shu bilan birga odamlar hayotida yovvoyi qushlar va hayvonlarni ovlash o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Sopollitepadan topilgan bug‘u, jayron, qulon, yovvoyi cho‘chqa, quyon, o‘rdak, kaptar va boshqa ko‘pgina hayvon va parranda suyaklari qoldiqlari bu fikrni tasdiqlaydi. Ovchilik odamlarnin qo‘shimcha mashg‘uloti bo‘lgan. Ular asosan yovvoyi cho‘chqa, bug‘u va qulonni ovlaganlar.

Arxeologik topilmalar bronza davri hayvonot dunyosi hozirgi faunaga nisbatan ancha boy bo‘lganligini ko‘rsatadi. Daryo vohalari, tog‘lar va dashtlar xilma-xil hayvonlar va qushlar tarqalishi uchun qulay tabiiy muhit yaratgan.

Tog‘oldi va dashtlarda yashovchi aholining asosiy tirikchilik manbai chorvachilik edi. Ayniqsa, Orol dengizi sohillariga yaqin dashtlarda va Quyi Zarafshon hududlarida yashovchi aholining iqtisodiy hayotida chorvachilik muhim ahamiyat kasb etgan. Bu qabilalar asosan mayda chorva, qoramol va otlarni ham boqqanlar.

Metallurgiya rivojlanishi uchun xomashyo konlari zarur bo‘lgan. Qizilqumda bronza davriga mansub qadimgi mis konlari va ma‘dan eritish xumdonlari topib o‘rganilgan.

Bronza asrida metallchilikning keng yoyilishi va mehnat qurollarini ishlab chiqarish uslublari ancha o‘zgarishi bilan odamlar yangi mis konlarini qidirishga majbur bo‘lganlar (ayniqsa, misni qalay va qo‘rg‘oshin bilan birga eritib qotirish uslubini o‘rganib olgandan so‘ng). Lekin ilk metall davrida mis qimmatli ashyo bo‘lib, sof mis faqat ayrim joylarda uchragan. Qabilalarning uzoq viloyatlarga yoyilishi, yangi yerlarni o‘zlashtirishdan tashqari, mis, qalay va qo‘rg‘oshin konlarini kashf etish bilan bog‘liqdir.

Bronza davrida manzilgohlar yangi yerlarda vujudga kelgan. Xorazm vohasi, Farg‘ona vodiysi va Surxondaryo vohasidagi ma‘lum yodgorliklarning asosiy qismi daryo irmoqlari yaqinida joylashgan. Tog‘

oldi va dasht chegaralaridagi unumdor yerlar hosildor dehqonchilik tumanlariga aylangan.

Bronza davriga oid buyumlar ixtisoslashgan hunar kasbi qatorida xonaki hunarmandchiligi ham yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Odamlar loydan, suyakdan, toshdan, yog'ochdan va charmdan xilma-xil buyumlar yasaganlar. Ushbu davrda kiyim jun va zig'ir tolasidan to'qilgan. Manzilgohlardan to'qimachilik sohasida ishlatilgan sopol va toshdan yasalgan urchuqlar topilgan.

Ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar va hunarmandchilikning rivojlanishi asosida aholining ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'lgan. Dehqonchilik va chorvachilik ortiqcha mahsulot va mol ayirboshlashni tartibga solishda asosiy vazifani bajargan edi.

Patriarxal urug'ning rivojlanishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi bilan katta jamoa oilalarning oziq-ovqat mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish uchun zamin yaratilgan.

Sopollitepa va Jarqo'tondan topilgan bronza muhr-tamg'alar burgut, ilon, tuya va boshqa tasvirlar bilan naqshlangan. Ular ayrim katta patriarxal oilalar va urug'larning ramzlari bo'lgan.

Zamonbobo qadimgi qabristonida erkaklar qabrlaridan topilgan buyumlar orasida ko'proq sopol idishlar, chaqmoqtoshdan ishlangan o'q uchlari va nayza paykonlari hamda pichoqsimon parrakchalar uchraydi. Ayollar qabrlaridan qimmatbaho toshlardan (lojuvard, feruza, sardolik) yasalgan turli shakldagi munchoqlar, marjonlar va mis ko'zgular topilgan.

Bronza davri manzilgohlarida o'rganilgan jamoa uy-joylari, oltindan ishlangan zeb-ziynatlar, boy qabrlardan topilgan bronza idishlar va yarog'lar, qimmat toshlardan yasalgan marjon va urug' boshliqlarining shaxsiy tamg'alari ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar beradi. Katta patriarxal oilalarning mulki uy-joylar, hunarmandchilik buyumlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari va chorva mollaridan iborat bo'lgan. Kulolchilik va bronza buyumlari savdo-sotiq mahsulotiga aylangan.

Biroq xususiy mulkchilik va mol ayirboshlash qaysi darajada rivojlanganligi haqida tarix fani aniq ma'lumotlarga ega emas. Qabilalar hayotida qadimgi urug'chilik xususiyatlari, shu jumladan, katta oila a'zolari tomonidan xo'jalikni birgalikda olib borish, yerga birgalikda ishlov berish, umumiy turar joyda (katta jamoa uylarida) yashash an'analari saqlanib qolgan. Bu uy-joylarda yakka kichik oilalarga 2-3 xonali turar joylar tegishli bo'lsa-da, lekin ularning ijtimoiy- iqtisodiy hayoti – “umumiy tom ostida”, oila, urug' boshlig'i rahbarligida o'tganligi bilan izohlanadi. Yerga egalik qilish jamoatchilik xususiyatiga ega bo'lgan. Sun'iy sug'orish inshootlarini qurish, kanal va ariqlarni tozalab turish kabi muhim ishlar jamoalar tomonidan birgalikda amalga oshirilgan. Shuningdek, bu davrda Marg'iyona va Baqtriya hududlarida saroy va ibodatxonalar xo'jaliklarining ajralib chiqqanligini taxmin qilish mumkin.

Bronza davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mavzusiga tegishli turli qarashlar va yondashuvlar mavjud. Mazkur masalaga oid yozma manbalar ma'lum bo'lmaganligi sababli, bronza davridagi mintaqa hududlarida yerga egalik qilish, yaylovlar, suv manbalari va sug'orish inshootlaridan foydalanish xususiy mulkchilikka nisbatan jamoatchilik mazmuniga ega bo'lishi ko'proq haqiqatga to'g'ri keladi. Bu davrda yer qonuniy jihatdan xususiy mulk sifatida rasmiylashtirilgan deb talqin qilish shubhalidir.

Tarixda yerga xususiy mulkchilik soliq tizimi rivojlanishiga zamin yaratgan. O'rta Osiyoda soliq tizimi mavjudligi haqida ilk bor qadimgi fors bitiklari, Persepol saroyidagi bo'rtma rasmlar, Gerodot hamda antik davr Parfiya va Xorazm yozuvlari xabar beradi. Bulardan qadimiyroq bo'lgan “Avesto”da pul va soliq tizimi haqida hech qanday ma'lumotlar yo'q.

Shuningdek, bronza davrida turli mahsulot ishlab chiqaruvchi hunarmandlar o'zlari ayirboshlash va savdo-sotiq bilan shug'ullanganlar. Savdo-sotiq maxsus kasb-hunar sifatida birdan hunarmandchilikdan ajralib chiqmagan. “Avesto”da ham xususiy mulkdorlar – savdogarlar tilga olinmaydi.

Mil. avv. IV mingyillikning oxirlariga kelib, Qadimgi Sharqda (Old Osiyo, Misr, Ikkidaryo oralig'i) ilk davlatlar shakllandi. Mazkur jarayon bu hududlarda juda erta ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar, binokorlik va me'morchilik, hunarmandchilik va ayirboshlashning jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan belgilandi.

Eneolit va ilk bronza davrida O'rta Osiyo janubiy viloyatlarida ham urug'chilik tuzumida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Metall eritish, mis va bronzadan qurollar ishlab chiqarish, omoch bilan yer haydab ziroatchilik qilish, sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, binokorlik va hunarmandchilikning turli sohalari rivojlanishi natijasida, jamiyatda erkaklar yetakchilik qilib, ijtimoiy-iqtisodiy tizimda ularning mavqei oshib bordi (oilalar, urug'ni yetarli mahsulotlar bilan ta'minlash erkak qo'liga o'tdi, uy xo'jaligi yumushlari ayollar zimmasida qoldi). Shu tariqa, urug'chilik oilasida erkak muhim ijtimoiy o'ringa ega bo'lib, patriarxat davri boshlandi (yunoncha, *pater* – ota va *arch* – hokimiyat). Qarindoshlik erkak nomi bilan belgilanadigan bo'ldi.

Katta patriarxal oilasi ota tomonidan yaqin qarindoshlarni birlashtirib, ular umumiy uy-joy, ishlab chiqarish vositalari, ro'zg'or buyumlari, taqsimlangan dala yerlarga ishlov berib va chorvaga egalik qilib, yetishtirilgan umumiy oziq-ovqat mahsulotlarini birgalikda iste'mol qilganlar. Patriarxal oilalarning o'sib borishi natijasida yangi oilalar paydo bo'lgan.

Yuqoridagi ta'riflangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bronza davrida Marg'iyona – Baqtriya jamoalariga ham xos bo'lgan. Mazkur tarixiy- madaniy viloyatlar jamiyatida turli ijtimoiy guruhlar ajralib chiqqan va ilk davlatchilik tizimiga doir jarayonlar rivoj topgan. Marg'iyona – Baqtriya sivilizatsiyasi fanda "Oks - Amudaryo sivilizatsiyasi" deb e'tirof etilgan. Tadqiqotchilar uning kelib chiqishini Akkad - Elam hududlaridan Sharqiy Eron va O'rta Osiyo janubiga (Kopetdog' oldi, Marg'iyona, Baqtriya) aholi migratsiyalari bilan bog'laydilar. Boshqa hududlarda (Toshkent

vohasi, Farg‘ona vodiysi, Quyi Zarafshon va Xorazm vohalari) ishlab chiqaruvchi kuchlarning sust taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan notekis rivojlanishi tufayli, urug‘-qabila tuzumi munosabatlarning an‘analari ilk temir davriga qadar o‘z ahamiyatini saqlab kelgan.

Madaniy aloqalar, aholi va etnik jarayonlar.

O‘rta Osiyo tuprog‘idagi qabilalar bir xilda taraqqiy topgan emas. Turli viloyatlarning madaniy taraqqiyotida o‘ziga xos xususiyatlar aniqlangan. Bu madaniyatlar dehqonchilik, uy chorvachiligi va yarim ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalarga mansubdir. Ular bir-biridan ajralgan holda rivojlanmagan va turli qabilalar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar izchil keng taraqqiy topgan.

Zamonbobo topilmalarida dasht chorvador qabilalari madaniyatiga va janubiy o‘troq dehqonchilik madaniyatlariga oid ayrim xususiyatlar saqlanib, ular bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ham bu ikkala madaniy an‘analar Quyi Zarafshonda, birinchidan, iqtisodiy va madaniy aloqalar asosida, ikkinchidan, O‘rta Osiyoning janubiy o‘troq va shimoli- sharqiy chorvador qabilalarining yoyilishi bilan ham bog‘liq bo‘lgan.

Bronza davrida aholi sonining o‘sishi natijasida o‘zlashtirilgan yerlar tobora kengayib borgan. Metallurgiya, dehqonchilik va chorvachilikning yuksak darajada rivojlanishi bilan birga tabiiy boyliklar, mis, qalay va qo‘rg‘oshin xomashyo konlari, bo‘z yerlar, suv manbalari va yaylovlarga qadimgi qabilalar muxtoj bo‘lib turgan. Mil. avv. II ming yillikning o‘rtalarida yaylovlarda boqiladigan chorvachilik maxsus xo‘jalik turiga aylangan. Bronza davrida Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Murg‘ob, Vaxsh va Panj daryolari bo‘ylab yangi yerlarga ko‘chish yo‘llari paydo bo‘ldi. Bu yo‘llar yoqasida mavsumiy makonlar, mozor-qo‘rg‘onlar va qabrlar topib o‘rganilgan.

Dashtli-Sopolli madaniyati vakillarining bir qismi Janubiy Tojikiston, Afg‘onistonning shimoli-sharqiy hududlarini o‘zlashtirib, Hind vodiysigacha yoyiladi, boshqa guruhlari esa Zarafshon vohasi va Sharqiy Farg‘ona yerlarida tarqaladi. Mazkur hududlarda ular mahalliy aholi bilan qorishib ketadi.

Margʻiyonada Gonur-Tugʻaloq va Baqtriyadagi Dashtli-Sopolli madaniyati bilan bir davrda, Janubiy Uralda Arkaim-Sintashta madaniyati paydo boʻladi. Mazkur madaniyatni yaratgan aholi mudofaa devorlar bilan oʻralgan koʻp sonli istehkomlarni bunyod etib, asosan, chorvachilik, shu jumladan, yilqichilik bilan shugʻullanganlar. Ularning ijtimoiy tizimida mol boqqan choʻponlar, bronza metallsozlar – hunarmandlar va jangchi suvoriylarning mavqei baland boʻlgan. Biroz keyin Arkaim- Sintashta madaniyati dasht hududlarida keng yoyilgan Andronovo madaniyati qabilalarining madaniyati rivojlanishiga katta taʼsir qilgan.

Fargʻona vodiysida mil. avv. II mingyillik boshlariga oid bronzadan ishlangan idish, bolta va toʻgʻnogʻichlardan iborat arxeologik ashyolar topilgan. Ushbu buyumlarga oʻxshagan topilmalar Eron, Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Afgʻoniston va Janubiy Oʻzbekiston yodgorliklarida keng tarqalgan. Ular Fargʻona vodiysida savdo-ayirboshlash va migratsiyalar asosida paydo boʻlgan. Zamonbobo qabristonida topilgan baʼzi munchoqlar Badaxshon lojuvardidan yasalgan. Shuningdek, Zamonbobo manzilgohida Oʻrta Osiyo janubiy ziroatchilari madaniyatiga xos mis toʻgʻnagʻichlar, xoch shakldagi marjonlar va sopol haykalchalar topilgan.

Janubiy Tojikiston bronza davri yodgorliklaridan olingan sopol idishlar ichida Surxon vohasi, Shimoliy Afgʻoniston va Janubiy Turkmanistonda ishlangan idishlarga oʻxshash sopol idishlar uchraydi. Oʻrta Osiyo qabilalarini Qadimgi Sharq davlatlari bilan madaniy aloqalar va savdo yoʻllari birlashtirgan. Bronza davrida uzoq masofadagi savdo-sotiq rivojlangan. Badaxshon togʻlaridan boshlangan savdo yoʻllari Eron va Mesopotamiyaga olib borgan. Badaxshonda qazib chiqarilgan qimmatli tosh- lojuvarddan yasalgan buyumlar Misr, Mesopotamiya va Eron yodgorliklarida aniqlangan. Shuningdek, oʻlkamizning baʼzi viloyatlarida Afgʻoniston, Pokiston va Hindiston hududlaridan keltirilgan sopol idishlar, dengiz chigʻanoqlari, fil suyagi va metalldan ishlangan buyumlar, fil va ajdar tasvirlariga ega muhrlar ham uchraydi. Panj daryosining soʻl sohilida

(Afgʻonistonning shimoli-sharqi) Hind sivilizatsiyasi, yaʼni Xarappa-

Moxenjodaro madaniyatiga oid SHo'rt'o'qay savdo faktoriyasining kashf etilishi ancha tasodif bo'ldi. U Hind sivilizatsiyasi markazi Moxenjodarodan 1100 km masofada noyob minerallar va metallarga boy Sharqiy Baqtriyaning tog'-konchilik tumanlarining yaqinida joylashgan.

O'rta Osiyo bronza davri tadqiqotchilari ixtiyorida yozuvsiz manbalar mavjud bo'lib, mazkur zamonning aholisi, ularning qiyofasi antropologik manbalar asosida o'rganiladi.

Bronza davrida O'rta Osiyo janubida O'rtayer dengizi irqining vakillari yoyilgan. Mintaqaning shimoliy dasht qismlarida janub aholisidan antropologik jihatdan farq qiladigan qabilalar yashaganlar.

Mil. avv. II mingyillikning o'rtalari va ikkinchi yarmida Surxon-

Sherobod vohasiga va Janubiy Tojikistonning hududlariga shimoldan chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan qabilalar bosqichma-bosqich kelib o'rtnashgan. Dasht chorvador qabilalarining moddiy madaniyati haqida

Jarqo'ton yodgorligi va Vaxsh makonidan topilgan sopol buyumlar, bronza

qurollari hamda qadimgi qabrlar o'rganilishi natijasida aniqlangan dafn

marosimlari dalolat beradi. Sopol idishlar qo'lda ishlangan va ularning

sirti murakkab geometrik o'yma naqshlar bilan qoplangan. Bu idishlar mil. avv. II mingyillikda G'arbiy Sibir, Janubiy Ural va Qozog'istonning

dashtlarida yoyilgan Andronovo madaniyatiga doir idishlarga o'xshab ketadi.

4-mavzu. Ilk shaharlar va davlatlarning arxeologik belgilari.

- 4.1. Ilk shaharlar va davlatlar tarixini tiklashning moddiy asoslari.
- 4.2. Markaziy Osiyo davlatchiligining o'rganishdagi zamonaviy muammolar va yondoshuvlar.

Kalit so'zlar:

Ilk shaharlar va davlatlarning shakllanishi insoniyat tarixida jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy va madaniy hayotini tubdan o'zgartirgan xodisa bo'lgan.

Qadimgi Sharqda ilk shaharning arxeologik belgilarini ishlab chiqishda, miqdor va sifat jihatdan ajralib turgan ko'rsatkichlar hisobga olingan. Manzilgoxlarning tarxi, katta – kichikligi (umumiy maydon), mudofaa tizimi, katta jamoatchilik inshootlari va ishlab chiqarish markazlarining mavjudligi shular jumlasidandir. Bunday arxeologik yodgorliklarning ichki tuzilishiga ko'ra, ularning hududida 5 000 kishining istiqomat qilish imkoni bo'lgan nisbatan katta aholi punktlarning shaharlar sifatida talqin qilish taklif etilgan.

O'rta Osiyo janubida mill. Avv III ming yillikning II yarimida Oltintepa va Namozgox kabi yirik dexqonchilik markazlari rivoj topgan.

Oltintepaning (umumiy maydoni 46 gektar) asosiy qismining aholining turarjoylari egallab olgan. Uy-joylarning maydonlari 50-80-100 kvadrat metrni tashkil etadi. Ular katta –kichikligi ko'rsatkichlariga ko'ra, 5-8-10 ta turarjoylar va xo'jalik imoratlar (omborxonalar, oshxonalar va ustaxonalar) dan iborat bo'lib, katta patriarxal oilalarga tegishli bo'lgan. Aloxida guzarlar ko'chalar bilan ajratilagan, ular Oltintepaning markaziy maydoniga olib borgan. Uning yonida zinapoyali katta ibodatxona-zikkurat joylashgan. Arxeologik topilmalariga ko'ra, Oltintepada ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari (kulolchilik, bronza buyumlar va qurollarni ishlab chiqarish, zargarlik to'qimachilik) rivojlangan.

Oltintepa aholi ziroatkorlar, hunarmandlar, binokorlar, guruxlariga bo‘lingan. Shuningdek ibodatxona-zikkuratning ortida tarkibiy jixatidan 47 ta turarjoylar, ro‘zg‘or va xo‘jalik xonalaridan iborat bo‘lgan me‘moriy majmuasi qoldiqlari topib tekshirilgan bu yerda koxinlar va ularning xizmatkorlari oilalari yashagan.

Majmuaning janubiy qismida, tomonlari 10x16 metrga teng aloxida joylashgan to‘g‘ri burchak katta bino e‘tiborga molik. Uning to‘rtta xonasida koxinlarning oila a‘zolari dafn etilgan va mazkur bino bronza davriga oid maqbara bo‘lgan. Dafn buyumlari (jixozlari) ichida sopol idishlar, bo‘yra va savat qoldiqlari, lojuvard, agat va fil suyagidan yasalgan munchoqlar, oltin va kumushdan ishlangan bezaklar xamda oltindan ishlangan bo‘ri va buqa bosh xaykalchalaridan iborat. Maqbara ichida 12 ta erkak, 15 ta ayol va olti yoshdan katta 3 ta bolaning skilet suyaklari aniqlangan.

Oltintepa shahar ko‘rinishiga ega bo‘lib, uning ijtimoiy – iqtisodiy tuzilishida ixtisoslashgan hunar-kasb soxalari va ishlab chiqarish jarayoni turlicha boshqaruv vazifalarini amalga oshirishni talab etgan. Qishloq xo‘jalik va binokorlik ishlarini tashkillashtirish xam boshqaruv tamoyillariga asoslangan. Axolining kundalik xayoti va o‘zaro ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarini muvofiqlashtirish va e‘tiqodlar marosimlarini ado etish jarayonlarida koxinlarning kasbiy va ijtimoiy- mafkuraviy mavqei oshib borgan. Koxinlar jamoalarning yo‘lboshchilari va keyingi bosqichda xukumdorlariga aylangan.

Ilk shaharlar, davlatchilik va boshqaruv tizimining vujudga kelishi chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Mil avv. III ming yillik oxirlari II ming yillik boshlarida Marg‘iyona va Baqtriyada yirik ibodatxonalar va saroylar majmualari paydo bo‘lgan. Misol tariqasida, Marg‘iyonaning ilk shahar markazi Gonurdagi katta saroy ichida, turli vazifalarni bajargan 460 ta katta – kichik xonalarning qoldiqlari aniqlangan. Shuningdek turli hunarmandchilik buyumlar va tasviriy san‘at namunalariga boy “podsho qabrlari” topilgan.

Qabr chuqurlarining yon tomonlari naqshinkor toshlardan terilgan tasvirlar bilan bezatilagan.

Saroy va ibodatxonlar xo‘jaliklariga tegishli yer mulklar, sun‘iy sug‘orish inshootlari, chorva, podalari, hunarmandchilik ustaxonalari va oziq ovqat maxsulotlar omborxonalari mavjud bo‘lgan.

Saroy va ibodatxonalarning majmualari mudofaa devorlari va burjlar bilan mustaxkamlangan bo‘lib, istexkom ko‘rinishiga ega. Bunday majmualarning tashqi yon tomonlarida ko‘p sonli xizmatkorlar- ziroatkorlar, cho‘ponlar, hunarmandlar va binokorlarning uylari joylashgan. Bu qismlar xam mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Saroy va ibodatxonalar xizmatkorlari o‘z ishlari xaqiga g‘alla, un, yog‘, go‘sht kabi oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta‘minlangan.

Saroy va ibodatxonalar yer-mulklari tizimidagi turli soxalariga doir ishlarni tashkillashtirish va amalga oshirish, qishloq xo‘jalik va hunarmandchilik maxsulotlarining omborxonalarga kirib kelishi va taqsimlanishini nazorat qilish vazifalari bilan shug‘illanuvchi ma’sul mansabdor kishilar mavjud bo‘lgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlari (Shumer, Misr, Elam) singari bronza davri Marg‘iyona- baqtriyada ibodatxona va saroy xo‘jaliklarini shakllangan ma’muriy tashkilot boshqarib turgan. Elam xo‘jalik xujjatlari ma’lumotlariga ko‘ra ibodatxonalarning yerlari va sun‘iy sug‘orish inshootlari “xudo dalalari” va “xudo kanallari” deb atalgan. “xudo dalalari” va “saroy dalalari” ga qullar, qaram kishilar va xizmatkorlar ishlov berishgan. Shuningdek, aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta oilalardan iborat shahar jamoalari va dexqonchilik tumanvohalarida yashagan ozod jamoalari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ularning yerga egalik qilish va suv manbalaridan foydalanish o‘z xususiyatlari bilan ajralib turgan. Shu bilan birga “xudo dalalari oyi” da barcha jamoalar a‘zolari ibodatxona va davlat (saroy) tashqarisida majburiy ishlari bilan band bo‘lganlar.

Margʻiyona va baqtriyada suv, hosildorlik va olov eʻtiqodlariga bagʻishlangan katta ibodatxonalar hamda saroylar Gonur, Doilyli va Jarqoʻton shaxar harobalarida topib tekshirilgan. Arxeologik maʼlumotlar bronza davrida dehqonchilik, sunʻiy sugʻorish tizimi, chorvachilik, hunarmandchilik va mol ayirboshlash yuqori darajada taraqqiy topganidan darak beradi. Bu davr ijtimoiy-iqtisodiy tizimi vohalardagi qishloq xoʻjalik jamoalari, ibodatxona va saroylar mulkchiligi, ilk shaxarlar aholi jamoalarning xususiy mulkidan iborat boʻlib, jamiyatda turli ijtimoiy qatlamlar (tabaqalar) ajralib chiqqan va maʼmuriy-xududiy hamda umumiy eʻtiqodlar va diniy qarashlar jihatdan birlashgan.

Aloqa-savdo yoʻllari orqali, ulov transport vositalari yordamida, uzoq masofada joylashgan yurtlar (Xindiston, Eron, Old Osiyo, Ural, Sibir, Sharqiy Turkiston) iqtisodiy aloqalar rivojlangan. Bundan, tranzit savdo asosida, turli oʻlkalardan olib kelingan buyumlar guvohlik beradi. Ulov-transport mavzusiga doir Gonur qabristonida toʻrt gʻildirakli arava hamda tuya va eshak skeletlari qoldiqlari topilgan. Oʻrta Osiyo janubida davlatchilik tarixi mil.avv. III ming yillikning oxirlarida boshlangan.

IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot. Qadimgi jamiyatlar xo‘jaligini o‘rganish muammolari, qadimiy jamiyatlar xo‘jaligini o‘rganishdagi tizimli yondoshuv, o‘zlashtiruvchi xo‘jaliklar (termachilik, ovchilik, baliqchilik) tarixiga oid arxeologik topilmalarning mazmun mohiyati, ishlab chiqarish xo‘jaliklarni (dexqonchilik, chorvachilik) o‘rganish usullari, mavzuga oid zamonaviy ilmiy nazariyalar (2soat).

2-amaliy mashg‘ulot. Ilk ziroatchilar jamiyatida jamoatchilik hunarmandchilikning shakllanishi hunar kasbini dehqonchilikdan ajralib chiqishining texnologik shart – sharoitlari, ixtisoslashgan hunarmandchilikning rivojlanishi, arxeologiya ma’lumotlari va paleodemografiya masalasi, ilk ayriboshlashning shakllari. Qadimgi aloqa yo‘llarining rivojlanishi. Arxeologiya ma’lumotlari va paleodemografiya masalasi(2soat).

3-amaliy mashg‘ulot. Ijtimoiy taraqqiyot tarixini arxeologiya manbalari asosida rekonstruksiya, iqtisod tarixini umumlashtirish, tiklash muammolari, asosiy yondoshuvlar (2soat).

4-amaliy mashg‘ulot. Uy - joylarning evolyusiyasi va ularning ijtimoiy taraqqiyot bilan aloqadorligi (2soat)..

5-amaliy mashg‘ulot. Dafn marosimlari, odatlari va qabrlarda topilgan buyumlarning tarixiy rekonstruksiya jarayonidagi ahamiyati. Qadimgi e’tiqodlar va diniy qarashlarning o‘rganish muammolari. Qadimgi tosh davrida hayot (2soat).

6-amaliy mashg‘ulot. Ilk shaharlar va davlatlarning arxeologik belgilari, ilk shaharlar va davlatlar tarixiga doir arxeologiyada ahborot. Markaziy Osiyoda davlatchilikning kelib chiqishi xususiyatlarini arxeologik ma’lumotlari asosida yoritilishi. Zamonaviy muammolar va yondoshuvlar (2soat).

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

V. KEYSLAR BANKI

1-keys-stadi.

Keys 1. Arxeologiya atamasiga kim asos solgan. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi sabablarini ko'rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Arxeologiya atamasiga ta'rif. U qanday ma'noni anglatadi. Arxeologiya atamasini kim muomalaga kiritgan.
- Arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi sabablarini keltiring.

2-keys-stadi.

Keys 2. Yer sharida xayotning paydo bo'lishi va ilk ibtidoiy odamlarning kelib chiqishi shart-sharoitlari

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Yerda xayot kandy paydo bo'lgan. Yer shari tarixi xaqida ma'lumot keltiring
- Odamzodning xayvonot dunyosidan odamzod dunyosiga qadam qo'yishiga sabab bo'lgan omillarni izoxlang

3-keys-stadi.

Keys 3. Dastlabki gominidlarinng paydo bo'lishi sabablarini ko'rsating Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Gominidlar atamasiga ta'rif bering. U qanday ma'noni anglatadi
- Yer yuzida topilgan dastlabki paleantropologik topilmalar xaqida ma'lumot keltiring va qiyosiy taxlil qiling

4-keys-stadi.

Keys 4. Nima sababdan Afrika insoniyat beshigi sifatida e'tirof etiladi. va sabablarini ko'rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Afrika xududidagi dastlabki ibtidoiy ajdodlarimizga oid topilmalar va ularinng taxlilini keltiring.
- Nima sababdan Afrika insoniyat beshigi sifatida e'tirof etilishi sabablarini keltiring

5- keys-stadi.

Keys 5. Nima sababdan dastlabki ajdodlarimiz Afrikadan Yaqin va O'rta Sharq xududida orqali yer yuzining boshqa xududlariga migratsiya qilishgan va sabablarini ko'rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Afrika xududida va Yaqin hamda O'rta Sharq paleolit davri iqlim, shart-sharoitlari haqida ma'lumot keltirng va ularinng taxlil qiling.
- Yaqin va O'rta Sharq xududidagi eng qadimgi tosh davri yodgorliklari va topilmalari

6- keys-stadi.

Keys 6. Nima sababdan dastlabki arxeologik tadqiqotlar Yevropa xuuddida o'tkazilgan ko'pgina arxeogik davrlar Yevropa xududid bilan bog'liq sabablarini ko'rsating

Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:

- Yevropada o'tkazilgan dastlabki arxeologik izlanishlar ularning taxlilini keltirng.
- Yevropa xududidan hozirgi zamon tipidagi odamning dastlabki topilmalarining qayd etilishi va Homo Sapiens muammosi.

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- meyoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
 - tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
 - avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
 - maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Arxeologik va tarixiy davrashtirish muammosi
2. Markaziy va Janubiy Afrikadan topilgan paleantropologik topilmalar.
3. Arxeologiya fanida antropogenez muammosiga oid yangi qarashlar.
4. Sharqiy Afrikadagi arxeologik topilmalarning tarixi.
5. Homo sapiens ning paydo bo'lishi masalasi

6. Yaqin va O'rta Sharq xududida paleolit va mezolit davri madaniyatlarining rivojlanishi.
7. Ibtidoiy odamlarning Yevropa qit'asiga tarqalish jarayonida Yaqin Sharq mintaqasining ahamiyati.
8. Yevropaning paleolit va mezolit davri madaniyatlari
9. Yevropaning paleolit davri qoyatosh suratlari
10. Old Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning vujudga kelishi muammolari.
11. "Neolit inqilobi" tushunchasining mazmun mohiyati jaxon tarixida neolit davri madaniyatlarining o'rni va ahamiyati.
12. "Sivilizatsiya" tushunchasi. Jaxon tarixida sivilizatsiyaning dastlabki o'choqlari.
13. Mesopatamiya – ikki daryo oralig'ida sivilizatsiyaning vujudga kelishining sabablari.
14. Hind va Xitoy qadimiy sivilizatsiyalari.
15. Yunoniston sivilizatsiyasi
16. Marg'iyona Baqtriya sivilizatssiyasi
17. Mezoamerika sivilizatsiyasi
18. Jahon antik davri arxeologiyasi
19. Shaharsozlik madaniyati vujudga kelishining arxeologik ma'lumotlari asosida o'rganish uslublari.
20. Arxeologiya fanida tarixiy rekonstruksiya muammolari.
21. Jahon arxeologik yodigorliklari va qadimiy madaniyatlarni o'rganish va targ'ib qilish masalasiga munosabat
22. Jahon arxeologiyasining insoniyat jamiyati tarixi va sivilizatsiya taraqqiyotini o'rganishda tutgan o'rni va ahamiyati.
23. Jahon arxeologiyasida qo'llaniladigan zamonaviy ilmiy metodik usullar.
24. Jahon arxeologiyasida tarixiy rekonstruksiya masalalari.
25. Jaxon arxeologiyasi va paleoekologiY.
26. Arxeologiyada tabiiy fanlar usullaridan foydalansh xususiyatlari.

27. Markaziy Osiyo arxeologiyasida zamonaviy muammolar (ilk davlatchilik va shaharsozlik madaniyati masalalari)
28. Jahon arxeologiyasi rivojlanishning umumiy ta'rifi
29. Zamonaviy arxeologik tadqiqotlar va kashfiyotlar
30. Jahon arxeologiyasining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi

VII. GLOSSARIY

Atama	Terminology	Termin	O‘zbek tilidagi sharhi
Arxeologiya	Archaeology	Arxeologiya	Arxayos-qadimgi va logos-fan degan ma’noni anglatadi
Antikvariyy	Antiquitates	Antikvariyy	Rimlik mualliflar yunoncha arxeologiya termini o‘rnida antiquitates-qadimiyot terminini qo‘llashgan.
Qadimiyot	Antiquaries	Drevnost	Rimlik mualliflar yunoncha antiquitates-qadimiyot sohasi vakillarini esa «antiquaries» - antikvariyy, ya’ni qadimiy topilmalar xavaskorlari deya atashgan.
Olduvay, ashel, mustye va so‘nggi paleolit	Olduvai, Ashel, Mousterian and Upper Paleolithic	Olduvey, Ashel, mustye i pozdny paleolit	Paleolit davri bosqichlari.
Klekton madaniyati	Clactonian	Klektonskaya kultura	mil avv. 550-475 ming yilliklarda Yevropaning quyi paleolit davri madaniyati

Yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya	Savagery, barbarism and civilization	Dikarstvo, varvarstvo i sivilizatsiya	Shotlandiyalik faylasuf A. Fergyson insoniyat tarixini uchta davrga ajratib ko'rsatgan
Neolit, bronza va ilk temir davrlari	Neolithic, Bronze and early Iron Age	Neolit, bronza i RJV	Arxeologik davrlar xisoblanadi.
Pleistotsén	Pleistocene	Pleistotsén	(yunonchada πλεῖστος) bundan 2,588 million yil avval boshlanib 11,7 ming yil avval tugagan geologik davrlardan biri.
To'rtlamchi davr yoki antropogen davri	Quaternary period, or anthropogenic	Chervertichniy period ili antropogen	Bundan 2,588 million yil avval boshlanib hozirga qadar davom etmoqda.
Petrografiya	Petrography	Petrografiya	Bu geologiya fani bo'lib, u tog' jinslarni har tomonlama o'rganadi.
Geoxronologiya	Geochronology	Geoxronologiya	Yerning yoshini yillar bilan ifodalab berish
Arxey erasi	Archaea	Arxey	Geologik davrlardan biri bo'lib, Bu erada yerda xali xayvon organizmlari kam va o'simlik organizmlari bo'lmagan
Kaynozoy erasi	Cainozoe	Kaynozoy	Uchlamchi va to'rtlamchi

			davrlardan iborat.
To'rtlamchi davr	Quaternary period	Chervertichniy period	YA'ni insoniyat paydo bo'lgan davr antropogen davri deb xam yuritiladi.
Pleystotsen	Pleistocene	Pleystotsen	Buyuk muzliklar mavjud bo'lgan davr hisoblanadi
Pitekantrop	Pithecanthrope	Pitekantrop	arxeologiya fanida Noto erectus deb yuritiladi va 1981 yilda gollandiyalik olim E.Dyubua tomondan Indoneziyaning Ya va orolidan topilgan.
Avstralopitekus afarensis	Australopithecus afarensis	Avstralopitekus afarensis	bundan 4-2,5 million yil avval Sharqiy Afrikada istiqomat etgan.
Olduvey	Olduvai	Olduvey	Afrika xududida aniqlangan dastlabki tosh davri madaniyati.
Xomo sapiyens	Homo sapiens	Xomo sapiyens	Yuqori paleolit davrida yashagan ibtidoiy ajdodimiz.
Nomo va unga tegishli dastlabki toshqurollar	Nomo and his early work tool	Nomo i yego ranniye orudiy e truda	2.5 million yil avval Sharqiy Afrika xududida paydo bo'ladi.

Xomo Ergaster- Xomo Erektus	Noto ergaster— Noto erectus	Xomo Ergaster- Xomo Erektus	Ibtidoiy ajdodlarimizning Afrikadan Yevroosiyog a
			dastlabki migratsiyasini boshlab bergan
Selung‘ur	Selengur	Selungur	O‘zbekiston tosh davri yodgorligi
Kulbuloq yodgorligi	Kulbulyak	Kulbulyak	O‘zbekiston tosh davri yodgorligi
Kadimgi tosh asri	Paleolith	Paleolit	Qadimgi tosh davri.
Zinjantrop	Zinjanthropus	Zinjantrop	Tanzaniyaning Zinji qishlog‘idan topilgan odam..
Pitekantrop	Pithecanthrope	Pitekantrop	(yunoncha “pitekos” – maymun, “antropos” – odam) Indoneziyaning Yava orolidan topilgan eng iadimgi odam.
Xomo sapiyens	Homo sapiens	Xomo sapiyens	Yuqori paleolit davrida yashag an ibtidoiy ajdodimiz.
Xitoy odami	Sinanthropus	Sinantrop	Xitoy odami.
Xomo Xabilis	“Homo habilis”	Xomo Xabilis	“ishbilarmon odam”.
Xomo Erektus	Homo erectus	Xomo Erektus	to‘g‘ri tik yuruvchi odam
Antropologiya	Anthropology	Antropologiya	Odamni o‘rganuvchi fan

O'rta Sharq atamasi	Near East	Blijniy Vostok	-(ingliz tilida Middle East) Britaniyaning Hindiston ishlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan 1850 yilda qo'llanilgan.
El-Masluk yodgorligi	Monument El Masluk	Pamyatnik El-Masluk	1969 yilda Kolumbiya universiteti arxeologlari tomonidan Livanning shimoliy qismida topib o'rganilgan.
Ubeydiya	Ubaid	Ubeydiya	(pleystotsen davri arxeologik yodgorligi hisoblanadi
Tabun g'ori	Tabun Cave	Peshera Tabun	Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan arxeologik yodgorlik.
Kebara g'ori	Cave Kebara	Peshera Kebara	o'rta tosh davriga oid bo'lib, Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan. Bundan 60-48 ming avval ushbu g'or makoni ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilgan
Sxul g'or makoni	Cave Es Skhul	Peshera Sxul	paleolit davri yodgorligi hisoblanib, Isroil xududida joylashgan.

Kafzex	Monument Kafzeh	Pamyatnik Kafzex	paleolit davri yodgorligi hisoblanib, Isroil xududida joylashgan.
Darrai -Kur	Darrai -Kur	Darrai -Kur	Afgoniston xududida joylashgan tosh davri yodgorligi.
Ashel	Ashell	Ashel	paleolit davrining ilk bosqichi
Mustye	Moustier	Mustye	paleolit davrining o'rtta bosqichi
Orinyak, Solyutre va Madlen	Aurignacian, Solutrean and Madeleine	Orinyak, Solyutre i Madlen	Fransiya xududida joylashgan paleolit davri yodgorligi
Neandertal odami	Neanderthal	Neandertalskiy chelovek	ilk bora Germaniyaning Feldgofer g'oridan topilgan.
Teyja	Teyzha	Teyja	(Fransiya) yaqinidagi g'ordan topilgan suyakka ishlangan
Ibtidoiy san'at	Prehistoric art	Pervobitnoye iskusstvo	prearxeologik davrlardan biri yuqori paleolit davrida vujudga kelgan
Lasko	Lasko	Lasko	Fransiyada joylashgan paleolit davri tasviriy san'atlarini o'zida mujassamlashtirgan g'or makon yodgorligi

Altamir	Altamir	Altamir	Ispaniyada joylashgan paleolit davri tasviriy san'atlarini o'zida mujassamlashtirgan g'or
			makon yodgorligi

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli

Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagidagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995- sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrdaagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4068-sonli Qarori.

SH. Maxsus adabiyotlar

1. Archive Principles and Practice. Crown copyright. 2011.
2. Archives terminology – select terms. Prepared by M. Hadly and M. Gourlir for the ASA Archives Institute, 2006.
3. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
4. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010Y.204.
5. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
6. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
7. Jhon Ridener. From Polders to postmodernism: an intellectual history of archival theory. USA, 2007.
8. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
9. Mamarahimova B.I. Buyuk ipak yo`li - sivilizatsiyalararo muloqot yo`li. O`quv qo`llanma. T. 2010. pdf.
10. Millar, Laura. Appraising and Acquiring Archives. In Archives: Principles and Practices, 115-143. New York: Neal-Schuman, 2010.
11. Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (Eng qadimgi davrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha). O`quv qo`llanma. T.: ToshSHI. 2010. pdf.
12. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
13. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiY. –

<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

14. Belkin V.V. Osnovi geologii. Uchebnoye posobiye. Perm-Berezniki. 2008. pdf.

15. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

16. Bogdanov I.I. Paleoekologiya. Uchebnoye posobiye. M. Izd. «FLINTA». 2011.

17. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. — Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.

18. Derevyanko A.P. Petrin, V.T. Taymagambetov J.K. Fenomen mikro industrialnix kompleksov Yevrazii Arxeologiya etnografiya i antropologiya Yevrazii. M., 2000.

19. Drevniye pamyatniki Sinszyana/ Mejkontinentalnoye izdatelstvo Kitaya, 2016.

20. Zubov A.A. Stanovleniye i pervonachalnoye rasseleniye roda "Homo". Sankt-Peterburg. 2011.

21. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. — Toshkent: "Lesson press", 2020. 112 bet.

22. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. — Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. — 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

23. Indiya i Sentralnaya Aziya (do Islamskogo perioda). Tashkent, 2000.

24. Isakova M. Stanovleniye i razvitiye arxivnogo dela v Uzbekistane. Tashkent: NUUz, 2012.

25. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. — T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

26. Karapetyans I.V, Ekonomicheskkiye arxivi Zapadnoy Yevropi i SSHA do nachala XX veka. M., 2007. 230 s.

27. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. "YURIST-MEDIA MARKAZI" nashriyoti. Toshkent. 2008.

28. Lunina S.B. Arxeologiya Sredney Azii. Uchebnoye posobiye. Tashkent. 1986. pdf.

29. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. — T.: "Sano-standart", 2015. — 208 b.

30. Obshaya paleoekologiya s osnovami ekologii. Uchebnoye posobiye. Pod redaksiyey G. N. Kiseleva. Izdaniye tretye, dopolnennoye. Sankt - Peterburg. 2005.

31. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

32. Rtveladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva i kultura Sentralnoy

Azii Tashkent, 2005.

33. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev YE.V. Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi - davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. T.2011. pdf
34. Rindina N.V., Degtyareva A.D. Eneolit i bronzoviy vek. Uchebnoye posobiye po kursu «Osnovi arxeologii». Izd. MGU.2002.
35. Sagdullayev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 1996. pdf.
36. Sagdullayev A.S. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. T., 2004. pdf.
37. Sarianidi V.I., Margush. Drevnevostochnoye sarstvo v stroydelte reki Murgab. Ashgabad. 2002.
38. Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. T., 2000. doc.
39. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
40. Xorxordina T.I., Prozorova V.B., Mazin K.A. Vseobshaya istoriya arxivov. Chast 1. M.: RGGU, 2019.
41. Semenkova S.I. Istoriya arxivov Rossii s drevneyshix vremen do nachala XX veka. Uchebnoye posobiye. Yekaterinburg: Izd-vo Uralsk. un-ta, 2015.
42. Chistyakov A.A., Makarova N.V., Makarov V.I. Chetvertichnaya geologiya. Uchebnik. M. Izd. «GEOS».2000. Djvu.
43. Eshov B.J. O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008. pdf.

IV. Internet saytlar

44. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
45. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
46. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
47. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyonET
48. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
49. <https://www.history.ru>
50. <https://www.natura.com>
51. <https://www.archaeology.ru>
52. <https://www.archaeology.com>